

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida

BOTIROVA SEVARA MA'MUROVNA

**O‘RTA OSIYO XONLIKLARIDA IRRIGATSIYA TIZIMI
(XVI – XIX ASRLAR)**

Magistratura mutaxassisligi: 5A220201 – O‘zbekiston tarixi

DISSERTASIYA

**Ilmiy rahbar: tarix fanlari nomzodi
Erqo‘ziyev Anvar Ashurovich**

NAMANGAN – 2012

Dissertatsiyada belgilangan asosiy maqsadi – XVI – XIX asr birinchi yarmida O‘rta Osiyo xonliklarida sug‘orish ishlari, sug‘orish ishlarini boshqarish va soliq tizimini o‘rganishdan iborat.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I bob. XVI-XVII asrlar O‘rta Osiyo xonliklarida yer egaligi va sug‘orish ishlari.....	15
1.1. XVI-XVII asrlarda O‘rta Osiyoda yer-suv munosabatlari va ularning turlari.....	15
1.2. Xonliklarda sug‘orish tizimining tashkil qilinishi va ulardan foydalanish.....	25
II bob. XVIII-XIX asr O‘rta Osiyo xonliklarida irrigatsiya tizimi va sug‘orish ishlarining o‘ziga xos xususiyatlari.....	37
2.1. Mang‘itlar sulolasi hukmronligi davri Buxoro amirligi irrigatsiya tizimidagi o‘zgarishlar.....	37
2.2. Qo‘ng‘irotlar sulolasi davrida Xiva xonligida sug‘orish ishlariga e‘tiborning kuchayishi va uning sabablari.....	45
2.3. Qo‘qon xonligida yer-suv munosabatlari va Farg‘ona vodiysi irrigatsiya tizimining shakllanishi.....	52
Xulosa.....	58
Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati.....	61

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda mustaqil O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’naviy hayotining barcha jabhalarida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida, erkin tafakkurga ega va milliy g‘oya ongi va qalbiga singdirilgan jamiyat a’zolarini tarbiyalash vazifalarini bajarishda tarix fanining roli jiddiy ravishda ortib bormoqda. Tarix “... millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda. Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib, yangi fuqarolik ongini shakllantirmoqda”¹. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tarixiy xotira haqida fikr yuritarkan: “Tarixiy xotira tuyg‘usi to‘laqonli ravishda tiklangan, xalq bosib o‘tgan yo‘l o‘zining barcha muvaffaqiyat va zafarlari, yo‘qotish va qurbonlari, quvonch va iztiroblari bilan xolis va haqqoniy o‘rganilgan taqdiridagina chinakam tarix bo‘ladi,”² – deya haqli tarzda qayd etgan edi.

Tarix fanining jamiyat taraqqiyotidagi rolining o‘ziga borishi natijasida uning oldida turgan dolzarb muammolar ko‘lami aniqlandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning bir guruh tarixchilar va jurnalistlar bilan 1998 yil 26 iyunda bo‘lgan uchrashuvi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorida tarixchilar oldida turgan dolzarb muammolardan biri sifatida o‘zbek davlatchiligi tarixini o‘rganish asosiy vazifa qilib belgilangan. Shuningdek, davlatchilikning turli tarixiy bosqichlarida O‘zbekiston hududida yashagan xalqlarning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va ma’naviy hayoti masalalarini o‘rganish zarurligi ko‘rsatib berildi³. Ushbu vazifadan kelib chiqqan holda bugungi kunda O‘zbekiston hududida qadimgi davrlardan hozirgacha kechgan siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarning turli masalalarini qamrab olgan tadqiqotlar yuzaga keldi. Ular jumlasiga qarama-qarshiliklarga boy, murakkab voqeyeliklar tizimidan iborat xonliklar davri tarixini kiritish mumkin. So‘nggi yillar mobaynida tarixchilar va sharqshunoslar tomonidan amalga oshirilgan chuqur, keng qamrovli manbashunoslik ishlari, tarixiy manbalar va XVI – XIX asrning birinchi yarmiga oid hujjatlarning nashr etilishi ushbu davr tarixini yangicha, ob‘ektiv, xolisona tarzda tadqiq qilish uchun zamin yaratdi. Biroq, bu davr tarixining ko‘pgina muammolari bugungi kunga qadar o‘zining yetarli darajada ilmiy tadqiqini topmagan. Ular jumlasiga O‘rta Osiyo xonliklarida asosiy mashg‘ulot turi dehqonchilikning taraqqiyoti va uning taraqqiyoti uchun xizmat qiluvchi omil sug‘orish ishlari bilan bog‘liq jarayonlarni kiritish mumkin. Zero, dehqonchilik va sug‘orish ishlari, sug‘orish inshootlari barpo etilishi, ularning davlatchilik taraqqiyotini ko‘rsatuvchi mezonlardan biri bo‘lib, ular tarixini o‘rganish XVI – XIX asrning birinchi yarmida O‘rta Osiyo xonliklarida yer va yer egaligi bilan bog‘liq munosabatlarning o‘ziga xos tomonlarini o‘rganish, aholining asosiy daromad manbai hisoblangan dehqonchilik taraqqiyotida sug‘orish inshootlarining turlari, asosiy xususiyatlari, ularning takomillashib borish jarayonini tadqiq etish orqali Vatan tarixi, xususan, davlatchilik tarixining ko‘pgina muammolariga oydinlik kiritish mumkin. Bu o‘rganilayotgan mavzuning dolzarbligini belgilaydigan muhim jihatlardan hisoblanadi.

Mustaqillikka erishganidan so‘ng O‘zbekiston o‘tgan yigirma bir yil ichida o‘ta mashaqqatli va sharaflı yo‘lni bosib o‘tdi. Buni oldindan yaxshi bilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov ozodlikka erishgan dastlabki kunlarimizda “O‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘limiz – bu gul bilan qoplangan yo‘l emas, bu totalitarizm merosidan xalos bo‘lish va poklanish, mafkuraviylik illati yetkazgan ziyon-zahmatlarni bartaraf etishning qiyin, uzoq davom

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари // Хавфсизлик ва тараққиёт йўлида. 6-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 1998. – Б. 137.

² Каримов И.А. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent., Ma’naviyat, 2008. – B. 97.

³ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Тарих институти фаолиятини тақомиллаштириш тўғрисида” ги Қарори // Халқ сўзи. 1998 йил 28 июль.

etadigan yo‘lidir”, deb aytgan so‘zlari zamirida qanchalik chuqur hayotiy ma‘no borligini yana bir bor anglaymiz⁴.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tadqiqot mavzusi hozirgacha alohida tadqiqot ob'ekti sifatida o‘rganilmagan. Shu davrgacha e‘lon qilingan manba va adabiyotlarda ushbu mavzuga doir ayrim ma‘lumotlar mavjud bo‘lsa-da, biroq ular ushbu mavzuni alohida tadqiqot ob'ekti sifatida umumlashma tarzda o‘rganilmagan.

O‘rta Osiyo krlarini eng qadimgi sug‘orish manbalari va hudud aholisining sug‘orish ishlari haqidagi ilk ma‘lumotlar qadim davrga mansub bo‘lib, Qadimgi Yunoniston va Qadimgi Rim tarixchilari Arrian, Kvint Kursiy Ruf, Strabon, Gerodot, Ktesiy va boshqa mualliflar tomonidan yozib qoldirilgan⁵.

O‘rta Osiyo xonliklaridagi sug‘orish ishlari va uning holati haqidagi to‘g‘risida ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlar juda kam. Mavjud adabiyotlarda ham ushbu masalaga daxldor ayrim ma‘lumotlar berilgan, xolos. O‘rta Osiyo xonliklarida sug‘orish tizimi va uning ahvoli mavzusi tarixshunosligiga oid adabiyotlarni shartli ravishda uch guruhga bo‘lish mumkin.

1. Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida chop etilgan adabiyotlar.
2. Sovet davri adabiyotlari.
3. Mustaqillik yillarida mavzuga doir nashr etilgan tadqiqotlar.
4. Xorijiy mualliflarning asarlari.

Birinchi guruh adabiyotlarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, asosan, rossiyaliklar mualliflik qilgan birinchi guruhga mansub asarlarda O‘rta Osiyoning iqtisodiy taraqqiyotiga, xalq xo‘jaligiga umumiy tasnif berilganligi bilan ajralib turadi. Bunday asarlarga P. Golubkov, F. F. Бобылев, S. O. Gulishambarov, A. Gubarevich-Radobilskiy, M. V. Dovnar-Zapolskiy, B. G. Kurs asarlarini kiritish mumkin⁶.

Sharqshunos olim N. I. Veselovskiyning O‘rta Osiyo va Eron, xususan, Xiva xonligiga bag‘ishlangan asarlarida xonlikning tashqi savdo aloqalarini yoritish bilan birga, unda davlatning suv yo‘llari va sug‘orish inshootlari bilan bog‘liq siyosati haqidagi ma‘lumotlarni ham qayd etgan⁷.

Birinchi guruhga oid adabiyotlarda O‘rta Osiyo xonliklarining irrigatsiya tizimi va sug‘orish tarmoqlari, sug‘orish ishlari haqida umumiy, qisqa ma‘lumotlar mavjud bo‘lib, bu ma‘lumotlardan xonliklar davlat boshqaruvida sug‘orish ishlari bilan bog‘liq sohaga alohida e‘tibor berilganligini bilib olish mumkin.

Ikkinchi guruhga mansub sovet davrida nashr etilgan asarlar, risolalar, amalga oshirilgan tadqiqotlar va e‘lon qilingan maqolalar mavzu tarixshunosligining yangi bosqichini boshlab

⁴ Karimov I. A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011. – B. 27.

⁵ Арриан Флавий. Поход Александра. Пер. М. Е. Сергеевко. – М–Л., 1962. – 384 с.; Квинт Курций Руф. История Александра Македонского. Пер. и примеч. под ред. В. С. Соколова. – М.: МГУ, 1963. – 478 с.; Страбон. География в семнадцать книг. Пер. статья и ком. Г. А. Стратановского. – Л.: Наука, 1964. – 943 с.; Геродот. История в девяти книгах. Пер. и примеч. Г. А. Стратановского. – Л.: Наука, 1972. – 600 с.; Средняя Азия в известиях античного историка Ктесия. Пер. и примеч. И. В. Пьянкова. – Душанбе.: Дониш., 1975.

⁶ Голубков П. О торговом пути в Среднюю Азию и Индию через Россию. – М., 1847. –15 с.; Бобылев Ф. Ф. Сближение Средней Азии с Европой. – Тифлис., 1858.–32 с.; Гулишамбаров С. О. Всемирная торговля в XIX веке и участие в ней России. –СПб., 1898. – 230 с.; Губаревич-Радобильский А. Экономический очерк Бухары и Туниса. Опыт сравнительного исследования двух систем протектората. – СПб., 1905. – 130 с.; Довнар-Запольский М. В. Торговля и промышленность Москвы в XVI–XVII в. – М., 1910.; Ўша муаллиф. Русская история в очерках и статьях. В 3-томах. – Москва-Киев, 1912.; Курц Б. Г. Сочинение Кильбургера о русской торговле в царствование Алексея Михайловича. – Киев. 1915. – 606 с.

⁷ Веселовский Н. И. Очерк историко-географических сведений о Хивинском ханстве от древнейших времен до настоящего. – СПб., 1877. – 364 с.; Ўша муаллиф. Памятники дипломатических и торговых сношений Московской Руси с Персией. – СПб., 1890. Т.1. – 453 с.; Ўша муаллиф. Иван Данилович Хохлов – русский посланник в Персии и Бухаре в XVII в // Журнал Министерство народного просвещения. 1891 г. январ. – С. 48–72.

beradi. Bu davr adabiyotlarida mustamlakachilik g'oyalarining ta'siri sezilib tursa-da, o'rganilayotgan mavzuning ayrim qirralarini ochib beruvchi ma'lumotlar berilganligi bilan muhim ahamiyatga ega. Xususan, I. A. Remez tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot Buxoro xonligining iqtisodiy taraqqiyotiga bag'ishlangan bo'lib, unda Buxoroning tashqi savdosida muhim rol o'ynagan mahsulotlar, ularni yetishtirish yo'llari, Buxoro xalqining sug'orma dehqonchilikdagi tajribalari haqidagi ayrim ma'lumotlar berilgan⁸.

G. A. Mixalevaning bir qator asarlarida O'rta Osiyo xonliklarining savdo-iqtisodiy taraqqiyoti suv yo'llari va sug'orish tarmoqlari bilan bog'liqlig xususidagi ma'lumotlarga asosiy e'tibor qaratilgan⁹.

Rossiyada fan-texnika taraqqiyoti tarixi va uning o'ziga xos xususiyatlari ustida olib borilgan tadqiqotlarda ham O'rta Osiyo xonliklarining suv yo'llari, sug'orish manbalarni va inshootlari haqida ayrim ma'lumotlar berilgan¹⁰.

Bu davrda o'zbekistonlik tarixchi olimlar tomonidan ham o'rganilayotgan mavzuning ayrim jihatlarini qamrab olgan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Xususan, R. G. Muqminova XVI asrda Buxoro va Samarqandda mavjud bo'lgan hunarmandchilik tarixini o'rganish jarayonida suv inshootlarini qurish bilan bog'liq hunarmandchilik turlarining ayrim qirralarini ochib berishga xizmat qiluvchi ma'lumotlarni keltiradi. Olima o'z tadqiqotlari jarayonida O'rta Osiyo hunarmandchiligi an'analari va tajribasi sug'orish ishlarini olib borish va sug'orish inshootlari qurilishida muhim rol o'ynaganligini isbotlab bergan¹¹.

Bu davrda amalga oshirilgan O'rta Osiyoning Rossiya bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalaridagi munosabatlariga bag'ishlangan bir qator ilmiy tadqiqotlarda xonliklarda mavjud hunarmandchilik sohalarini sug'orish ishlari taraqqiyotiga ta'siri xususidagi ayrim ma'lumotlar berilgan¹².

Xususan, taniqli olimlar M.I.Yo'ldoshev, Ya.G'.G'ulomov va A.Juvonmardievlar tomonidan yaratilgan ilmiy tadqiqot adabiyotlarida, O'rta Osiyoning qadimdan to XX asr boshlarigacha bo'lgan yer egaligi, sug'orish manbalari va tarixiga oid ma'lumotlar tarixiy manbalar va arxiv materiallari asosida keng yoritib berilgan¹³.

B.V.Lunin tomonidan to'planib nashr etilgan "Istoriya Uzbekistana v istochnikax (Uzbekistan v soobsheniyax puteshestvennikov i uchyonix 20-80-ye godi XIX v.)" asar mavzuni yoritishda muhim ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Chunki, asarda O'rta Osiyoda bo'lgan

⁸ Рemez. И. А. Внешняя торговля Бухары до мировой войны. – Т., 1922. – 45 с.

⁹ Михалева Г. А. Торговые и посольские связи России со среднеазиатскими ханствами через Оренбург (вторая половина XVIII–первая половина XIX в.) – Т., Фан, 1982. – 92 с.; Ўша муаллиф. Узбекистан в XVIII–первой половине XIX века. Ремесло, торговля, пошлин. – Т.: Фан, 1991. – 112 с.

¹⁰ Пекарский П. П. Наука и литература в России при Петре Великом. В 2-х т. – СПб., 1862. Т.1. –578 с.; Райнов Т. И. Очерки по истории донаучного и естественнонаучного воззрений на природу. Част 1–3. – М.: АН СССР, 1940. –508 с.; Лебедев Д. М. География в России XVII века. –М–Л., 1949. –233 с.

¹¹ Мукминова Р. Г. Очерки по истории ремесла в Самарканде и Бухаре в XVI веке. – Т.: Фан, 1976. – 233 с.

¹² Михалева Г.А. Торговые и дипломатические связи России с Бухарским ханством через Оренбург в конце XVIII- начале XIX века: Дисс. ... канд. ист. наук. –Т.: ИИА АН Уз ССР, 1963. – 194 с; Пўлатов Ю. Русские-среднеазиатские отношения конца XVII-первой четверти XVIII века: Дисс. ... канд. ист. наук. –Т.: ИИА АН Уз ССР, 1968. – 252 с; Гаффоров Ф. Россия билан Кўкон ўртасидаги иктисодий ва сиёсий алоқалар (XIX асрнинг биринчи ярми ва 60-70 йиллар): Тарих фан.номз. ... дисс. –Т.: Ўз ССР ФА ТАИ, 1970. – 226 б; Амитов А. Русско-хивинские отношения в первой половине XIX века: Дисс.... канд. ист. наук. –Т.: ИИА АН Уз ССР, 1970. – 227 с; Гуломов Х.Г. Посольские связи Бухарского ханства с Россией в XVIII веке: Дисс. ... канд. ист. наук. –Т.: ИИ АН Уз ССР, 1984. – 177 с; Агзамова Г.А. Среднеазиатские центры торговли и пути, связывавшие их с Россией (вторая половина XVI – первая половина XIX в.): Дисс. ... канд. ист. наук. –Т.: ИИ АН Уз ССР, 1990. – 195 с.

¹³ Ўйлодшев М.И. Хива хонлигида феодал ер эгаллиги ва давлат тузилиши. – Тошкент., 1959. – 350 б; Гуломов Я.Ф. Хоразмнинг суғорилиш тарихидан. – Т.: Фан. 1959. – 249 б; Жувонмардиев А. XVI-XIX асрларда Фарғонада ер-сув масаласига доир. – Т.: Фан, 1965. – 301 б.

rus sayyohlarining esdaliklari asosida xonliklar davlat boshqaruvi va unda sug'orish ishlari bilan bog'liq sohalarning rivoji ma'lumotlar berilgan¹⁴.

Mustaqillik davrida muammoni o'rganish borasida bir qator ilmiy ishlar amalga oshirildi. G. A. Agzamova, H.N.Bobobekov, H. Z. Ziyoev, D. H. Ziyoeva, A. Ziyoyev, Y. Qosimov, Z. A. Saidboboev, O'. M. Mavlonov, E. Qobulov, U. Abdurasulov, Z. Is'hoqov va boshqa¹⁵larning tadqiqotlarida O'rta Osiyo xonliklarining sug'orish tizimi va uning boshqaruvi bilan bog'liq ba'zi ma'lumotlar mavjud. Ularda O'rta Osiyo xonliklarining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayoti, ularning tashqi aloqalari masalalarini o'rganish asnosida sug'orish ishlariga oid muhim ma'lumotlar keltiriladi. Xususan, G. A. Agzamova o'z tadqiqotlarida O'rta Osiyoning tashqi va ichki savdo faoliyatida muhim rol o'ynagan suv yo'llari, bu yo'llarda ishlatilgan transport vositalari, xonlik hukumatlarining suv va sug'orish inshootlari bunyod etish bilan bog'liq siyosatini ko'rsatib berishga harakat qilgan¹⁶.

Bu davrda O'rta Osiyo va Rossiya munosabatlari bo'yicha o'z tadqiqotlarini chuqurlashtirgan H. Z. Ziyoev masalaning ayrim jihatlariga oydinlik kirituvchi bir qator asarlarini e'lon qildi¹⁷.

D. H. Ziyoeva maqolasida esa XIX asrda O'rta Osiyoga kelgan sayyohlarning o'lka shaharlari tasviri, ichki va tashqi savdosi, iqtisodiy hayoti va sug'orish inshootlari haqida ma'lumotlari tahlil etilgan¹⁸.

O'. Mavlonovning tadqiqotlarida O'rta Osiyo xonliklarining, xususan, Buxoro va Xiva xonliklarining suv savdo yo'llari va sug'orish manbalari chuqur o'rganilgan. Ammo, tadqiqotda sug'orish inshootlari faqat savdo munosabatlari nuqtai nazaridan o'rganilganligi bois, bu inshootlarni kim va qanday mavsadda qurdirganligi, qaysi mintaqalar bu inshoot orqali sug'orilishi haqidagi ma'lumotlar berilmagan¹⁹.

Bu davrda o'rganilayotgan muammoning ayrim masalalariga oydinlik kirituvchi bir qator dissertatsiyalar himoya qilindi. Jumladan, Z. A. Saidboboev tadqiqoti esa XVI – XIX asrlar yevropadagi O'rta Osiyoga doir tarixiy xaritalarga bag'ishlangan bo'lib, ularning manbaviy

¹⁴ Лунин Б.В. История Узбекистана в источниках. Узбекистан в сообщениях путешественников и учёных 20-80-е годы XIX в. – Ташкент.: Фан, 1990. – 192 с.

¹⁵ Бобобеков Х.Н. Қўқон тарихи. – Т.: Шарқ, 1996. – 320 б.; Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Т.: Шарқ, 2000. – 298 б.; Қосимов Ў. Наманган тарихидан лавҳалар. – Т.: 1990. – 54 б.; Унинг ўзи. Қадимги Фарғона сирлари. – Намангон, 1992. – 88 б.; Қобулов Э. Сурхон воҳаси хўжалиги. –Тошкент.: Akademnashr, 2012. – 408 б.; Исҳоқов З. Фарғона водийси анъанавий дехқончилик маданияти. – Тошкент., Yangi nashr, 2011. – 144 б.; Абдурасулов У. К вопросу о классификации земельного фонда Хивинского ханства (вторая половина XVIII – XIX в.) // O'zbekiston tarixi. –Тошкент., 2006. –№ 2-3. – Б. 83-89; Унинг ўзи. Вақфная грамота 1778 года как источник по изучению аграрных отношений в Хивинском ханстве // O'zbekiston tarixi. –Тошкент., 2006. –№ 2-3. – Б. 49-57.

¹⁶ Агзамова Г. А. О караванных путях из Хивы в Оренбург // Общественные науки в Узбекистане. – Ташкент, 1991. – №12. – С. 43–48.; Ўша муаллиф. К истории торговли Бухари XVI–первой половине XIX века // Общественные науки в Узбекистане. –Ташкент, 1991. – №9-10-11. – С.56–63.; Ўша муаллиф. Сўнгги ўрта асрлар Ўрта Осиё шаҳарларида хунармандчилик ва савдо. – Т., 2000. – 52 б.; Ўша муаллиф. Среднеазиатские пути торговли и пути связывавшие их с Сибирью (первая половина XIX века) // История, проблемы объективности и нравственности. – Ташкент. 2003. –С.54–58.; Ўша муаллиф. Волжско-Каспийский путь в XVI– первой половине XIX века // Тюркологический сборник. 2002. Россия и тюрксий мир. – Москва. 2003. –С.139-154.;

¹⁷ Зиёев Х. З. Сибирь, Волга ва Урал бўйларидаги ўзбеклар. – Т.: Шарқ, 2003. – 320 б.; Ўша муаллиф. Тарихнинг очилмаган саҳифалари. – Т.: Шарқ, 2005.–232 б.

¹⁸ Зияева Д. Х. Важные сведения по истории Бухары в мемуарах зарубежных путешественников XIX века. // Тарихий манбашунослик муаммолари. Республика илмий амалий анжумани материаллари. – Т., 2008. – Б. 175–178.

¹⁹ Мавлонов Ў., Маҳкамова Д. Маданий алоқалар ва савдо йўллари. –Т.: Академия, 2004. – 122 б.; Мавлонов Ў.М. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари: шаклланиши ва ривожланиш босқичлари. – Т.: Akademiya, 2008. – 432 б.

ahamiyati ilk bor keng tahlil etilgan. Shuningdek, bu ilmiy ish asosiy e'tibor O'rta Osiyoning suv manbalari, suv yo'llarini o'rganishga qaratilganligi bilan alohida ahamiyatga ega²⁰.

XX asr oxiri – XXI asr boshlarida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ularda mavzu yoritilishiga xizmat qiluvchi ma'lumotlar va ilmiy fikrlar mavjud. Biroq, bevosita O'rta Osiyo xonliklari irrigatsiya tizimi va inshootlarini to'liq ko'rsatib berishga erishgan tadqiqot yo'qligini qayd etish darkor.

Mavzuga oid xorijiy mualliflar asarlari xususida shuni ta'kidlash lozimki, XX asr 90-yillaridan so'ng Markaziy Osiyo respublikalarida ham O'rta Osiyo xonliklarining siyosiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga doir e'tiborga molik tadqiqotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, bu borada Tojikiston Respublikasida bajarilgan Buxoro amirligining siyosiy-iqtisodiy, madaniy va tashqi savdo aloqalariga doir B. Ismailova va A. Sh. Yorovning tadqiqotlari mana shu yo'nalishga oid ayrim ma'lumotlarni bera oladi. B. Ismailova Buxoro amirligining Amir Haydar boshqaruvi davriga (1800–1826) bag'ishlangan risolasida, amirlikdagi sug'orish inshootlari bilan bog'liq masalalarni, shuningdek, sug'orish tarmoqlarini rivojlantirishning manfaatli tomonlarini qisman o'rgangan²¹.

S. Gorsheninaning risolasi yevropada fransuz tilida gaplashuvchi aholi tomonidan O'rta Osiyoning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga oid to'plangan ma'lumotlarni o'zida jamlagan. Bu ma'lumotlar 1848 – 1932 yillarda O'rta Osiyoga kelgan 160 dan ziyod sayyohlarning kundalik va xotiralari asosida tuzilgan. Risola bevosita yevropaning muzey va arxivlarida saqlanayotgan qo'lyozma asarlar va sur'atlar asosida yozilgan bo'lib, XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi O'rta Osiyo xonliklari tarixi bo'yicha yangi ma'lumotlarni beradi²².

O'rganilayotgan mavzuga oid barcha adabiyotlar tahlili shundan dalolat beradiki, O'rta Osiyo xonliklarida suv va sug'orish ishlari bilan bog'liq davlat siyosati doimo birinchi o'rindagi muhim dolzarb masala bo'lib kelgan. Xonliklarda amalga oshirilgan sug'orish ishlari bilan bog'liq yangiliklar davlat hukmdorining shaxsiy tashabbusi, davlat amaldorining o'z hisobidan yoki aholining tashabbusi bilan hashar kuchi bilan bunyod qilingan. Adabiyotlarda bu jarayon xon hukumatining tashabbusi bilan amalga oshirilganligi ko'rsatilib, uning boshqaruvi va soliq tizimi aholining xizmatlari hisobga olinmay davlat foydasiga undirilganligi ta'kidlangan. Shuningdek, tadqiqot qamrab olgan davriy chegara oralig'ida xonliklar sug'orish ishlari holatiga oydinlik kirituvchi ba'zi ilmiy qarashlar ilgari surilgan, ayrim ma'lumotlar ilk bor muomalaga kiritilgan.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Dissertatsiyada belgilangan asosiy maqsad – XVI – XIX asr birinchi yarmida O'rta Osiyo xonliklarida sug'orish ishlari, sug'orish ishlarini boshqarish va soliq tizimini o'rganishdan iborat. Ana shu maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar rejalashtirildi:

- O'rta Osiyo xonliklarida suhorish isharing vuxudga kelishi ular taraqqiyotidagi o'zgarishlar va ularning o'ziga xos tomonlarini ko'rsatish;

- tadqiqot qamrab olgan davriy chegara doirasida O'rta Osiyoning suhorish ishlari va tarmoqlarini holati tasvirlargan manba va adabiyotlarni tahlil etish orqali xonliklarning suv bilan bog'liq davlatchilik an'alarini tarixiy ildizlarini ochib berish;

- Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklarining sug'orish tizimining bir-biridan farqli tomonlarini aniqlash;

- O'rta Osiyo xonliklarida sug'orish va irrigatsiya tizimi ilan bog'liq davlat lavozimlar va ularning vazifalarini ko'rsatib berish;

²⁰ Саидбобоев З. А. Европада Ўрта Осиёга оид тарихий-картографик маълумотлар (XVI–XIX асрлар): Тарих фан. номз. ... дисс. – Т.: ЎзР ФА ШИ, 2004. – 166 в.

²¹ Исмаилова Б. Политическая история Бухарского эмирата при Эмире Хайдаре. – Душанбе.: Қонуният. 1999. – 76 с.

²² La route de Samarcande: L'Asie Centrale dans l'objectifs des voyageurs d'autre-fois / Par Svetlana Gorshenina. – Geneve. Educations Olizane, 2000. – 247 p.

–O‘rta Osiyo xonliklari iqtisodiy imkoniyatlarini oshishida sug‘orish ishlari va inshootlarini o‘rmini tahlil etilishi O‘rta Osiyo tarixi va o‘zbek davlatchiligi tarixini yangi ma‘lumotlar bilan to‘ldirishda muhim manba bo‘lib xizmat qilishini ko‘rsatish;

– O‘rta Osiyo xonliklarida suv yo‘llari, ular holatida yuz bergan o‘zgarishlarni o‘rganish;
– O‘rta Osiyo xonliklarining irrigatsiya tizmining o‘ziga xos ayrim xususiyatlarini tahlil etish;

Tadqiqotning manbaviy asoslari. Tadqiqot ishiga oid manbalarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin. 1) XVI – XIX asrlarda mahalliy muarrixlar tomonidan yozilgan tarixiy asarlar; 2) Rossiyalik elchi, sayyoh, savdogarlar, olimlar boshqa shaxslarning xotiralari, rasmiy xabarlar va tarixiy asarlari.

Birinchi guruh manbalarini XVI – XIX asrlarda mahalliy tarixchilar tomonidan yozilgan asarlar tashkil etadi. Ularda asosiy e‘tibor O‘rta Osiyoda kechgan siyosiy voqyealarga qaratilib, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, xususan, xonliklarning xo‘jalik masalalarini yoritishga xizmat qiluvchi ma‘lumotlar ozchilikni tashkil etadi. Xususan, Zayniddin Vosifiyning “Badoi ul vaqoe”, Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma”, Muhammad Yusuf Munshining “Tarixi Muqimxoniy”, Muhammad Amin Buxoriyning “Ubaydullanoma”, Abduraxmon To‘le‘ning “Tarixi Abulfayzxoniy”, Muhammad Hakimxon To‘ra qalamiga mansub “Muntaxab ut-tavorix” va Muhammad Aziz Marg‘iloniyning “Tarixi Aziziy” asarlarida O‘rta Osiyo xonliklaridagi ayrim sug‘orish inshootlari, davlat boshqaruvi haqida ayrim ma‘lumotlar mavjud, xolos²³. Ammo, Xiva xonligining sug‘orish ishlari bilan bog‘liq Shermuhammad Munisning “Arnalar” g‘azali xonliklar davri sug‘orish ishlari bo‘yicha eng nodir manba sanaladi²⁴.

Ikkinchi guruhga O‘rta Osiyoga savdo-tijorat ishi, rus hukumatining alohida topshirig‘i asosida kelgan elchilar, rasmiy shaxslar, shuningdek, savdogarlar, sayyohlar, olimlarning O‘rta Osiyo haqidagi esdaliklari, rasmiy xabarlar, ilmiy asarlari kiradi. Rossiya davlatining O‘rta Osiyo bilan savdo aloqalarini o‘rnatishga va rivojlantirishga bo‘lgan harakatlari natijasida Rossiya imperiyasi vakillari o‘lkaning tabiiy mitaqaolari, suv manbalari, sug‘orish inshootlari, ularning ishlash prinsiplari haqida ham muhim ma‘lumotlarni qayd etgan²⁵.

Tadqiqotning davriy chegarasi. Tadqiqot uchun davriy chegara qilib XVI – XIX asrning birinchi yarmi olindi. Ushbu davrda O‘rta Osiyoda murakkab siyosiy jarayonlar kechgan. Mustaqil davlatlar sifatida tashkil topgan Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonliklari bu jarayonlarda muhim rol o‘ynaganlar. Xonliklar o‘rtasidagi qarama-qarshi xarakterga ega munosabatlar ularning davlat boshqaruvida, xalq xo‘jaligini yuritish sohasida ham o‘z aksini topgan. Bu davlatlar mintaqada kechgan murakkab siyosiy vaziyat, iqtisodiy imkoniyatlarni yaxshilash,

²³ Зайн ад-дин Васифи. Бадаи ал-вакаи / Критический текст, введение и указатели А.Н.Болдырева. В 2 томах. – М., 1961.– 1377 с; Ҳофиз Таниш ибн Мир Муҳаммад Бухорий. Абдуллонома (Шарафномаи шоҳий) / Форсчадан С.Мирзаев таржимаси. Сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Б.Аҳмедов. 1-2 китоб. –Т., 1999. – 416 б; Муҳаммад Юсуф Мунши. Муқим-ханская история / Перев. с таджик. Пред. примеч. и указатель проф. А.А.Семёнова. –Т., 1956. – 303 с; Муҳаммад Амин-и Бухари. Убайдулла-наме / Перев. с таджик. Пред. примеч. и указатель проф. А.А.Семёнова. –Т., 1957. – 326 с; Абдурахман Тали. История Абулфейз-хана / Перев. с таджик. Пред. примеч. и указатель проф. А.А.Семёнова. –Т., 1959; Ҳақимхон ибн Саййид Маъсумхон. Мунтахаб ут–таворих. ЎзР ФАШИ. к.ф. №594. – 699 в; Муҳаммад Азиз Марғилоний. Тарихи Азизий. – Т.: Маънавият, 1999. – 112 б.

²⁴ Шермуҳмад Мунис. Ғазаллар. – Т.: 2000. – 56 б.

²⁵ Сойманов Ф.И. Описание Каспийского моря. – Спб., 1763. – 380 с; Унинг ўзи. О торгах за Каспийское море древних, средних и новейших времен. – Спб., 1765. – 74 с; Описание всех на российском государстве обитающих народов. Част 2. О народах татарского племени. – Спб., 1776. – 188 с; Савельев П. Бухара в 1835 году. –Спб., 1836. – 26 с; Путешествие Г.Базинера через киргизскую степь в Хиву 1842 г. с Данилевским // Известия РГО. Вып 5. – Спб., 1849 – 282 с; Хаников Н. Описание Бухарского ханства. – Спб., 1843; Попов А. Сношение России с Хивой и Бухарою при Петре Великом // Записки ИРГО. Кн.9. – Спб., 1853 – 188 с; Путешествия по Средней Азии совершенной в 1863 году Арминием Вамбери. – Спб., 1865. – 221 с; Десятилетнее странствование Филиппа Ефремова (70-е годы XVIII века) // История Узбекистана в источниках. Известия путешественников, учёных и географов XVI-первая половина XIX в. –Ташкент., 1988.

diplomatik munosabatlarni yo'lga qo'yishni turli yo'llar, xususan, qishloq va xalq xo'jaligini rivojlantirish, xususan, sug'orish ishlari va inshootlarini taraqqiy ettirish vositasida hal etishga harakat qilganlar. Magistrlik ishida Rossiyada O'rta Osiyo haqida ma'lumotlar to'plash jarayonida nashr etilgan ko'pgina elchi, sayyohlarning kundalik va esdaliklarini o'rganish orqali, o'zaro iqtisodiy aloqalari tarixini ochib berish uchun yuqorida qayd etilgan davr asos qilib olingan.

Ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar va markazlashgan davlatlarning paydo bo'lishi natijasida qishloq xo'jaligi, xususan, sug'orish ishlari nufuzli tarmoqqa aylandi. Ushbu sohaning taraqqiy etishida dehqonchilik taraqqiyoti va hashar muhim omillardan biri hisoblanadi. Shuning uchun XVI – XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyo xonliklari sug'orish tizimini o'rganish ushbu davrni tavsiflaydigan muhim omillardan biri sanaladi.

Tadqiqot ob'ekti. Tadqiqot ob'ektini O'rta Osiyoning xonliklarining XVI–XIX asrning birinchi yarmidagi sug'orish tizimi va inshootlar qurilishi bilan bog'liq masalalari tashkil etadi. Tadqiqot predmeti sifatida sug'orish tizimi, uni yo'lga qo'yish va boshqarish usullari, suv bilan bog'liq O'rta Osiyo xonliklari soliq siyosati o'rganiladi.

Tadqiqotning nazariy va uslubiy asoslari. Mavzuni yoritish jarayonida tarixiy yondashuv va qiyosiy tahlil, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida ilgari surilgan Vatan tarixini manbalar asosida haqqoniy o'rganish, xolislik va tarixiylik tamoyillariga asosiy e'tibor qaratildi. Tadqiqot jarayonida muammoni yangi tarixiy tafakkurning konseptual nuqtai-nazaridan idrok etishga, tarixiy voqyealar xarakterini ularning real mazmuni asosida, hozirgi zamon tarix fani talablari kontekstida ochib berishga asosiy e'tibor qaratildi.

Magistrlik dissertatsiyaning ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiyada ilk bor O'rta Osiyo xonliklarining sug'orish tizimi va inshootlari, ular bilan bog'liq davlat siyosati, boshqaruvi hamda soliq siyosati yoritildi. Tadqiqotda keltirilgan ma'lumotlar ilmiy asosga ega bo'lib, undan o'lkaning XVI - XIX asr boshlaridagi qishloq va xalq xo'jaligi tarixiga oid o'quv qo'llanmalar, darsliklar yaratishda, oliy o'quv yurtlari tarix fakultetlari bakalavrlari va magistrleri uchun maxsus kurslar tashkil etishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy xulosalari tadqiqotchi tomonidan Namangan davlat universiteti Tarix fanlari kafedrasida tomonidan nashr etilgan "Tarix tilga kirganda..." davriy to'plamidagi chiqishlarida ilmiy jamoatchilikka yetkazilgan.

Dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi. Dissertatsiya kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati iborat.

I BOB. XVI-XVII ASRLAR O'RTA OSIYO XONLIKLARIDA YER EGALIGI VA SUG'ORISH ISHLARI

1.1. XVI-XVII asrlarda O'rta Osiyoda yer-suv munosabatlari va ularning turlari

Amir Temur va temuriylar hukmronligidan keyin yurtimiz hududida o'zaro taxt talashish va urush-janjallar kuchayib, oxir-oqibatda avvalgi yagona davlat uch xonlikka bo'linib ketgani tarixdan yaxshi ma'lum. Bu xonliklarning har biri o'ziga xos soliq tizimiga ega edi.

Avvalo, Buxoro amirligi soliq tizimiga nazar tashlaydigan bo'lsak, Muhammad Shayboniyxon davrida xonlik maqomiga ega bo'lgan bu o'lkada ushbu sulola hukmronligi paytida soliq tizimida bir qancha o'zgarishlar yuz beradi. Jumladan, bu davrda yerga egalik qilishning quyidagi asosiy turlari mavjud edi:

- Mulki sultoniylar – davlatga qarashli yerlar;
- Mulki xolis – xususiy shaxslarga tegishli yerlar;
- Vaqf – diniy mahkamalarga, madrasa va masjidlariga, qabristonlarga qarashli yerlar.

Tarixiy manba va hujjatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, shayboniylar 40 dan ortiq soliq va jarimalarni joriy etgan. Soliq to'lovchi aholi fuqaro (raiyyat) deb atalib va ulardan turli soliqlardan tashqari jarimalar ham undirilgan.

Yerdan olinadigan asosiy soliq xiroj bo'lib, u ishlab chiqarilgan mahsulotning beshdan biri miqdorida pul yoki mahsulot shaklida olingan. Zakot solig'i savdo-garlar va chorvadorlardan olinib, uning hajmi umumiy daromadning qirqdan biri miqdorida bo'lgan.

Shahar aholisi – hunarmand va do'kondorlar maxsus soliq – tamg'a to'lagan. Undan tashqari, yirik boy va sudxo'rlarga tegishli savdo rastasida do'konlarni ijaraga olib, o'z buyumlarini sotgani uchun taxti joy (tagjoy) deb ataluvchi soliq to'lagan.

Boshqa (xristian, yahudiy, buddiy) dinga mansub savdogarlar o'z mahsulotining beshdan bir qismini juz'ya solig'i tarzida to'lagan.

Manbalarga ko'ra bu davrda yana ixrojat, tog'ar, ulufa, qo'nalg'a, begar, madadi lashkar, boj, tansuqot, tuhfa singari soliqlar bo'lib, ularning ko'pchiligi o'rta asrlarga xos edi. Raiyyat soliq to'lashdan tashqari, turli ishlarga (mudofaa insho-otlarini qurish, sug'orish tarmoqlarini tiklash yumushlariga) safarbar etilgan.

Shayboniylar davrida ham iqtisodiy hayotda sun'iy sug'orish bilan bog'liq muammolarni hal etish ishiga jiddiy e'tibor bilan qaralgan.

Bu sulola vakillari Sangzor, Chirchiq, Sirdaryo, Amudaryo, Vaxsh va Murg'ob daryolari imkoniyatlaridan unumli foydalanish choralari ko'rganlar.

Chunonchi, 1502-yilda Shayboniyxon Zarafshon daryosining Oqdaryo va Qoradaryoga ayiriladigan joyida suv ayirgichi–ko'prik qurdirgan.

Shayboniyxon avlodlari keyinchalik Qashqadaryoning irmoq-laridan Kesh viloyati yerlarini sug'orish uchun 10 dan ortiq kanal-lar qazitganlar.

Sun'iy sug'orish ishlari, ayniqsa, Abdullaxon II davrida keng rivojlangan. Masalan, 1556–1585-yillar oraligida Zarafshon daryosida Karmana, MehtarQosim, Chahorminor, Jondor suv ayirg'ichlari; Murg'ob vohasida Sangzor, Hovuzixon suv omborlari qurilgan. Bundan tashqari, Sangzor daryosidan Jizzax vohasiga Tuyatortar kanali, Somonjuq dashtini obodonlashtirishga xizmat qilgan Xoja Ka'ab kanali, Afshona kanali, Amudaryodan Chor-jo'yga, Murg'obdan Marvga, Vaxshdan uning atrof vohalariga suv chiqarishga imkon beruvchi kanallar qazilgan.

Bundan tashqari, Abdullaxon II karvon yo'llarini qayta jonlantirish, sardobalar, karvonsaroylar qurish va ta'mirlashga ahamiyat berdi. 1577-yilda Buxoroda yirik usti berk savdo rastasi – Abdullaxon timi qurildi. Nurota tumanidagi Oqchob yaqinida Beklarsoy dasida joylashgan qadimgi to'g'on qoldiqlari o'rnida ulkan band qurirdi. Abdullaxon bandi uning ravoqlarini to'g'on tepasida turib ochishi yoki bekitishi mumkin edi. Maqsad esa o'sha atrofdagi

bo'z yerlarni sug'orib dehqonchilikni rivojlantirish va yurtni obod qilish edi. Ayni paytda ko'plab mahalliy ahamiyatga ega suv inshootlari ham qurilgan.

Bu tadbirlar, o'z navbatida, qishloq xo'jaligi tarmoqlarining rivojlanishini ta'minlagan²⁶.

Shayboniylar davrida mehnatkashlarning iqtisodiy ahvoli nochor edi. Ko'pchilik omma yersiz bo'lib, ijaraga yer olib ishlashga majbur edi. Aholidan 20 turdan ortiq soliq va to'lovlar olinardi. Asosiy soliq sug'oriladigan yerdan olinadigan xiroj bo'lib, daromadning 30 – 40 foizini tashkil qilardi. Davlat muassasalari, qor snin va xon xonadoni xarajatlarini qoplash uchun to'lanadigan soliq ixrojt deb atalardi. Davlat pulga muhtoj bo'lganida favqulodda soliqlar ham joriy etilgan.

Aholi soliq va jarimalar toiashdan tashqari, mehnat majbu-riyatini ham o'tashi kerak edi.

Bu majburiyat aholini kanallar, zovurlar qazishga, yo'l va ko'priklar qurishga, yem-xashak yigishga jalb etishni nazarda tutardi. Shayboniylardan keyin Buxoro taxtini Ashtarxoniyalar egalladi.

Bu davrda soliqlar soni va miqdori haddan tashqari ko'payib ketgan. Masalan, Subhonqulixon davrida 7 yillik soliqlarni bir yilda yig'ish haqida farmon e'lon qilingan. Bu aholining yanada kambag'allashuvi, yerlarning qarovsiz qolishi, dehqonchilik inqiroziga, narxlarning oshib ketishiga sabab bo'lgan.

Buxoro xonligida XVIII asrning o'rtalarida mang'itlar sulolasi vakillari hokimiyat tepasiga keladi. Yangi hukmdorlar davlatni «amir» unvoni bilan idora qila boshlaydi va shu tariqa xonlik ham Buxoro amirligi deb atala boshlaydi.

XVIII asrning so'nggi choragida o'tkazilgan iqtisodiy islohotlar, xususan, soliqlarning tartibga solinishi mamlakat iqtisodiyotining bir qadar yuksalishiga imkon bergan. Soliqlar soni va miqdorini belgilashda shariat qonun-qoidalari va davlat xazinasini ehtiyojidan kelib chiqilgan.

O'rta asrlardagi musulmon davlatlari uchun xos bo'lgan, asosiy yer solig'i – xiroj, savdogarlar va chorva mollardan olinadigan zakot, tashqi savdodan keladigan boj solig'i, shuningdek, hunarmandlar to'laydigan turli soliqlar (zakot, tamg'a, taxa-joy) amirlikdagi asosiy soliq turlari edi.

Moliya idoralari ishlariga rahbarlik qilish va ularni nazorat qilish qushbegiga topshirilgan. U xiroj, zakot va boshqa o'lponlarning to'lanishini kuzatib borgan. yer o'lponi – xiroj to'lovchi devonbegiga chorva mollari hamda jonli mol-mulklar yuzasidan soliqlar to'plovchi esa qushbegiga itoat etgan.

Buxoroda urush bo'lib qolsa, aholidan, odatdagidek, favqulodda soliq (jul) yig'ib olingan. Amir Muzaffar aminona deb atalgan maxsus soliq joriy qiladi. Unga ko'ra, tovar va mol-mulk narxining 1,5 foizi miqdorida soliq to'langan. Zamonlar o'tishi bilan aminona doimiy soliqqa aylangan va qarshiliklarga qaramay, 1920 yilga qadar amal qilib kelgan.

Zakot va aminonadan tashqari, dallol solig'i, bir viloyatdan ikkinchi viloyatga olib o'tilayotgan mollar, umuman, yuklardan olinadigan bojlar ham savdo yig'imlariga kirgan. Molning narxi uni dastlab olib ketilgan joydan olib borilgan joygacha bo'lgan masofaning uzoq-yaqinligiga qarab olinadigan boj va zakot qo'shilishi bois ancha oshgan.

Xiva xonligi Amudaryoning quyi oqimidagi qadimgi Xorazm vohasida XVI asr boshlarida shakllangan feodal davlat bo'lib, XVII asrdan boshlab mustaqil mamlakat sifatida tanilgan. Xiva xonligida 1763 yildan boshlab qo'ng'iroq urug'i vakillari – inoqlar hukmronlik qila boshlagan. 1873 yilda Xiva xonligi ruslar istilosidan keyin Rossiyaga qaram bo'lib qolgan. 1920 yilda esa bolsheviklar tomonidan davlat sifatida butunlay tugatilgan.

Xiva xonligida ichki va tashqi savdo ancha rivojlangan edi. Ichki savdoda, asosan mahalliy mollar (qishloq xo'jalik mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlari) katta o'rin tutgan. Chetga aksariyat hollarda hunarmandlarning nafis buyumlari va dehqonchilik mahsulotlari sotilgan.

²⁶ Usmonov Q., Jo'rayev U., Norqulov N. O'zbekiston tariixi (XVI-XIX asrning birinchi yarmi). – Toshkent., O'qituvchi, 2010. – B.29.

Xivaliklar savdogarlarning mamlakat orqali olib o'tadigan yuklaridan ham boj olgan. Xonlik hududi orqali Rossiya, Buxoro kabi davlatlardan o'tadigan savdo kar-vonlaridan olingan to'lovlar saroy xazinasiga katta daromad keltirgan.

Bu yerlarda aholidan asosan xiroj, zakot, boj, juz'ya kabi qo'shni musulmon davlatlaridagi kabi soliqlar undirilgan. Ular shariatda ko'zda tutilgan miqdorda bo'lgan. Soliqlardan tashqari, aholi turli majburiyatlarni bajarishi shart bo'lgan. Erta bahorda ariq va soylarni tozalash, yangilarini qazishda o'z yeriga ega bo'lgan har bir xonadondan bir kishi 15 kun ishlab berishi zarur bo'lgan.

Xiva xonligida davlat yerlarida yashagan dehqonlar, forscha ibora bilan aytgan-da, dahyak, arabcha ushr solig'ini to'lagan. Chig'iriy yordami bilan sug'oriladigan yerlardan hosilning o'ndan bir qismi, chig'iriqsiz sug'oriladigan yerlardan esa, hosilning beshdan bir qismi olingan.

Xiva xonligida 25 ga yaqin turli doimiy va favqulodda o'lponlar, majburiyat va soliqlar bo'lgan. Ularning miqdori xon va amaldorlarning xohish-irodasi bilan belgilangan.

Dehqonlar yer solig'i – salg'it, mol solig'i – zakot to'lagan. Podsholik yerlarida ishlovchilardan yer solig'i dahyak, yaylovdan foydalanganlardan cho'p puli, xonadon egalardan uy solig'i kabi to'lovlar undirilgan.

Qo'qon xonligida O'rta Osiyo mintaqasiga xos bo'lgan barcha yirik hunarmandchilik turlari — to'qimachilik, kulolchilik, temirchilik, misgarlik, duradgorlik va boshqalar mavjud edi. Qo'qon o'z temirchilari, misgarlari, Chust do'ppido'zlari, Rishton kulolchilik buyumlari, Marg'ilon ipak va shoyi gazlamalari bilan shuhrat qozongan, ularning buyumlari va matolari ichki va tashqi bozorda xaridorgir bo'lgan.

Xonlikda soliqlar tizimi shariat qonun-qoidalariga mos kelsa-da, ammo aholidan mayda soliqlar, jarimalar behad darajada ko'p olingan. Asosiy soliq xiroj bo'lib, u pul va mahsulot tarzida edi. Savdogar va chorvadorlar zakot, hunarmandlar tamg'a va joy solig'i to'lashar edi. Soliq yig'uvchi amaldor «tanobchi» (har bir tanob yerdan soliq oluvchi), zakot solig'i oluvchi esa – «zakotchi» deb atalardi. Soliqlar qat'iy belgilangan miqdorda va fursatda yig'ilishi shart bo'lsa-da, xon va amaldorlarning ixtiyori bilan bu tartib o'zgarib turgan. Harbiy harakatlar paytida soliqlar turi va miqdori oshirilgan.

Xonlikda qishloq xo'jaligi (dehqonchilik va chorvachilik), savdo-sotiq va hunarmandchilik iqtisodning asosiy tarmoqlari hisoblanardi. Mamlakatning asosiy boyligi yer bo'lib. Shayboniylar davrida yer egalarning quyidagi asosiy tarmoqlari mavjud edi:

1. Mulki sultoniylar davlatga qarashli yerlar.
2. Mulki xolis-xususiy shaxslarga tegishli yerlar.
3. Vaqf-diniy mahkamalarga, madrasa va masjidlariga, qabristonlarga qarashli yerlar.
4. Qishloq jamoalari egalik qiladigan yerlar.

Dehqonchilik asosan sug'oriladigan hosildor yerlarda va lalmi dehqonchilik uchun qulay bo'lgan adirlar, tog' va tog' oldi hududlarida rivojlangan edi. Yerdan mehnat qiladigan kishilarning asosiy qismi kambag'al qishloq aholisi bo'lib, ular o'z yer maydoniga ega bo'lmasdan, ijaraga olingan yerda lehqonchilik qilib kun kechirgan.

Manbalarda keltirilishicha, bu davrda bug'doyning o'n xil navi, arpa, qo'noq, jo'xori, mosh, no'xat, makkajo'xori, loviya, kunjut, beda, suli, sabzavot va poliz ekinlari yetishtirilgan. Texnik ekinlardan sholi, paxta va boshqalar ekilgan. Sabzavotchilik, polizchilik, bog'dorchilik va ipakchilik yuksak taraqqiy etgan.

Dehqonchilik uchun qulay bo'lgan hosildor yer maydonlari, bepoyon yaylovlar xon va uning yaqinlari, yirik harbiy-ma'muriy amaldorlarga qarashli edi. Bu davrda xususiy yer egaligining o'rta asrlarda mavjud bo'lgan iqt'l, suyurg'ol va tanho shakllari ham keng tarqalgan. Harbiy-ma'muriy amaldorlarga va yirik din peshvolariga davlat oldidagi xizmatlari uchun beriladigan bunday yerlarda asosan yersiz kambag'al dehqonlar yollanib ishlaganlar.

Shayboniylar davlatining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida Buxoro yaqinidagi Juybor qishlog'idan chiqqan Juybor xojalari katta ta'sirga ega edi. Shayx Muhammad Islom (1493-1563) va uning avlodlaridan Xoja Sa'd (1531-1585) kabi yirik Juybor xojalarining Buxoro, Samarqand, nasaf (Qarshi), Marv va boshqa viloyatlarda katta yer maydonlari bo'lib, bu mulklar meros tariqasida avloddan-avlodga o'tgan va barcha soliqlardan ozod etilgan. Xonlar va boshqa yirik amaldorlar tomonidan ularga hadya etilgan yer mulklaridan tashqari ular Movarounnahr va Xurosonning serunum yaylovlariga, behisob podalarga, katta shaharlarda joylashgan o'z hunarmandchilik do'konlariga, savdo rastalariga, tegirmonlar, hammom va karvonsaroylardan keladigan daromadlarga ham ega bo'lganlar.

Tarixiy manbalarni, hujjatlarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, Shayboniylar davrida 40 dan ortiq turli soliqlar va jarimalar mavjud bo'lgan. Soliq- to'lovchi aholi fuqaro (raiyyat) deb yuritilgan va ulardan turli soliqlardan tashqari jarimalar ham undirib olingan. Yerdan olinadigan asosiy soliq xiroj bo'lib, u ishlab chiqarilgan mahsulotning 5/1 miqdorida pul yoki mahsulot bilan olingan. Zakot solig'i savdogarlar va chorvadorlardan olinib, uning hajmi 40/1 miqdorida bo'lgan.

Shahar aholisi: hunarmandlar va do'kondorlar maxsus soliq-tamg'a to'laganlar. Undan tashqari, yirik boylar va sudxo'rlarga tegishli savdo rastasida do'konlarni ma'lum haq evaziga ijaraga olib, o'z mahsulotlarini sotganligi uchun taxti joy (tagjoy) deb ataluvchi soliq to'lagan. Boshqa dinga mansub (xristian, yahudiy, buddiy) savdogarlar o'z mahsulotining 5G'1 qismini jiz'ya solig'i tarzida to'laganlar. Manbalarga ko'ra, bu davrda yana ixrojat, tog'ar, ulufa, qo'nalg'a, begar, madadi lashkar, boj, tansuqot, tuhfa va boshqa soliqlar mavjud bo'lib, ularning ko'pchiligi butun o'rta asrlar davriga xos edi. Raiyyat soliqlar to'lashdan tashqari turli ishlarga (mudofaa inshootlarini, sug'orish tarmoqlarini tiklash kabilarga) majburan jalb etilgan.

Ashtarxoniylar hukmronligi yillarida markaziy hokimiyat birmuncha zaiflashdi va buning oqibatida mamlakatdagi ijtimoiy va iqtisodiy hamda madaniy hayotda nisbatan inqiroz holatlari yuzaga keldi. Bu davrda shayboniylar davridagidek ijtimoiy tabaqalar saqlanib qolgan bo'lsada, ularning mavqeyida birmuncha o'zgarishlar yuz berganligi ko'zga tashlandi. Ashtarxoniylar davlatida poytaxt Buxoro shahri bilan birgalikda valiahd tomonidan boshqariladigan Balx shahrining ham nufuzi ortdi va mamlakatning siyosiy hayotiga kuchli ta'sir eta boshladi. O'taliq va o'zbek qabilaboshliqlarining nufuzi ortib ketdi. Rasman oliy tabaqa hisoblangan xon va yirik saroy amaldorlari ko'p hollarda harbiy-ma'muriy mansabdorlar, viloyat hokimlari, yirik qabila boshliqlari fikri bilan hisoblashishga majbur bo'lib, bu ularning ijtimoiy ahvolini deyarli tenglashtirib qo'yardi. Bu davrda juybor xo'jalarining avlodlari bo'lgan ulamolar va boshqa diniy amaldorlarning ijtimoiy hayotdagi mavqeyi yanada oshdi.

Siyosiy parokandalik, muttaasil davom etib turgan o'zaro ichki kurashlar va fitnalar halqni iqtisodiy jihatdan og'ir ahvolga solib qo'yish bilan birga mamlakatdagi iqtisodiy holatni ham inqirozga olib keldi. Shuningdek, tashqi hujumlar, talon-tarojlar natijasida dehqonchilik vohalari harob holga kelib qoldi, savdo karvonlarini talash hollari ko'payib ketdi. Bu esa o'z navbatida tashqi savdo aloqalarining cheklanishiga olib keldi. Ashtarxoniylar xonlaridan Imomqulixon (1611-1642) bu holatlarning oldini olishga harakat qildi va 1614-1615 yillarda qashqadaryodan qarshi cho'liga kanal qazdirdi. 1633-1634 yillarda esa Qushqo'rg'onda kanal qazdirdi²⁷. Biroq bu ham inqirozli holatlarning oldini ololmadi.

Bu davr dexqonchiligida o'rta asrlarga xos yer egaliga hamda iqtisodiy munosabatlari maqlanib qolindi. Garchi avvalgi xonlar davrida iqtisodiy ahvol birmuncha yaxshi ahvolda saqlangan bo'lsada, XVII asr ikkinchi yarmiga kelib, mamlakatdagi iqtisodiy ahvol tanazzuliga uchrash boshladi. yerlarning eng hosildor qismi avvalgidek yirik amaldorlar va din peshvolari qo'lida saqlanib qoldi. Asosiy soliq va yig'imlar qishloq kambag'al dexqonlaridan yig'ib olinardi. Ashtarxoniylar davrida sug'oriladigan yerlarda O'rta Osiyo mintaqasi uchun an'anaviy bo'lgan bug'doy, arpa, jo'xori, loviya, mosh, sholi, paxta, sabzavot va poliz ekinlari, dashti

²⁷ Асқаров А. Ўзбекистон тарихи. 1-жилд, Т.: Фан, 1992. – Б. 194.

yerlarida va tog‘ oldi xudularidagi lalmi yerlarda bug‘doy, arpa, kunjut, tarvuz, qovun va boshqalar ekildi, dehqonchilik qilingan. Manbalarda qayd etilishicha, o‘zaro urushlar dehqonchilik taraqqiyotini bir muncha orqaga surib turgan bo‘lsada, tinchlik davrlarida dehqonchilik orqasida yerlardan ancha yuqori hosil olingan. Dehqonchilik mahsulotlari ichki talabni to‘la qondirib, tashqi bozorga ham chiqarilgan. Bu mamlakat iqtisodining butunlay inqirozga tushib saqlab turgan asosiy omil edi.

Chorvachilik ham mamlakat iqtisodining asosiy tarmoqlaridan biri sanalgan. Chorva mollari yetishtirish bilan bir qatorda ularni tashqi savdoga ham chiqarganlar, transport va yer haydash ishlarida xo‘kizlar, otlar, ikki urkachli tuyalardan keng foydalanganlar.

Hunarmandchilikning markazi shaharlar bo‘lgan bo‘lsada, bu davrda inqirozli holatlarning kuchayishi oqibatida qishloqlarda ham hunarmandchilik va kerakli buyumlarni ishlab chiqarish birmuncha kengaydi. Hunarmandchilikda asrdan-asrga o‘tib kelayotgan yetakchi an‘analar saqlanib qolindi va ularning rivojlantirilishi bilan birga mahalliy xususiyatlarning ham ta‘siri ortib borgani kuzatiladi.

Ashtarxoniylar davrida yerga egalik qilishning, ilgorigi asrlarda amalda bo‘lganidek mulki sultoniy, xususiy mulk, vaqf yerlari shakllari mavjud edi.

Mulki sultoniy davlat yerlari hisoblanib, undan keladigan daromad xon xazinasiga kelib tushardi. Davlat yerlaridan o‘sha joylarda yashagan dehqonlar foydalangan, ular yerni ishlatib, olingan hosildan xiroj soligi to‘iaganlar.

Xon davlat tasarrufidagi yerlarni, aholi yashaydigan qishloqlarni shahzodalarga, yirik din ulamolari va sayyidlarga suyurg‘ol shaklida, harbiy qism boshliqlari, saroy amaldorlariga tanho shaklida irf om qilardi.

Suyug‘ol qilingan katta yer egalari xon xazinasiga soliq to‘lamas edi. Tanho shaklida in‘om qilingan yerlar tanhodorning xususiy mulki bo‘lmay, o‘sha yerlarda ishlayotgan dehqonlardan soliq olisli huquqi berilardi. Xon ayrim shaxslarga hukmdorga ko‘rsatgan alohida xizmatlari uchun ham yer-mulklar in‘om etardi. Bunday mulklar soliqlardan ozod qilinardi va shu boisdan ular «Mulki xurri xolis» deb atalardi.

Xususiy mulkchilik tobora kuchayib bordi. Xon tomonidan davlat yerlarini soliqqa tortmaslik sharti bilan yirik boylar va saroy amaldorlariga sotish hollari ham yuz berdi. Xususiy mulk egalari u yerlarda o‘vlari ishlamas edi, yersiz dehqonlarga ijara berib, ularni zo‘ravonlik bilan ishlatib, katta daromad olardilar.

Diniy mahkamalarga mulki sultoniy hisobidan berilgan u yerlar, masjidlar, xonaqohlar, qabristonlar vaqf mulki hisoblanardi. Vaqf mulkidan ham soliq olinmas edi.

Ko‘chmanchi chorvador qabilalar ham katta-katta yerlarni egallab, o‘troqlashib, dehqonchilik bilan shug‘ullanadigan bo‘idilar. Natijada Qo‘ng‘irot, Mang‘it, Nayman, Do‘rmon va boshqa aholi yashaydigan yirik manzilgo‘hlar vujudga keldi.

Barcha mulk shakllariga xos xususiyat shunda ediki, ularda yersiz kambag‘al dehqonlar ijara hisobiga mehnat qilganlar. Buxoro xonligidagi yerga egalik qilishning bunday tartibi oqibatda:

- qishloq xo‘jaligidan tushadigan daromadlarning alohida shaxslar qo‘lida to‘planib borishiga;
- xon xazinasiga tushadigan daromadlarning kamayib, davlatning kuchsizlanishiga;
- yerda ter to‘kib ishlovchi, mahsulot yetishtiruvchi mehnatkash aholi moddiy ahvolidan og‘irlashuviga olib keldi.

Tinimsiz urushlar, qabila boshliqlari va amirlar o‘rtasidagi ichki kurashlar mamlakat iqtisodiy hayotini, aholining moddiy turmushini ayanchli ahvolga tushirdi.

Sug‘oriladigan yerlardabug‘doy, arpa, jo‘xori, loviya, mosh, sholi, paxta, savzavot va poliz ekinlari ekilgan. Dasht va tog‘oldi lalmi yerlarda ham boshoqli ekinlar, kunjut, tarvuz, qovun ekilib, dehqonchilik qilingan.

Dehqonchilik mamlakat iqtisodining butunlay inqirozga tushib qolishidan saqlab turgan asosiy omil bo'lib, aholining oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qilgan. Imomqulixon davrida, 1614–1615-yillarda Qashqadaryodan Qarshi cho'liga kanal qazilgan. 1633–1634-yillarda Qo'shqo'rg'onda kanal qazilib, vohalarga suv chiqarilgan²⁸. Biroq ashtarxoniyalar davrida suv inshootlari qurilishiga yetarli e'tibor berilmadi.

Chorvachilik ham qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i bo'lgan. Mehnatkash aholi chorva mollarini boqib, go'sht, sut mahsulotlari yetishtirgan. Ammo katta yaylovlar xon, saroy amaldorlari, din peshvolari, qabila boshliqlariga tegishli bo'lib, ming-minglab qo'ylar, podalar, yilqilar, tuyalar boqilardi. Jun, teri va boshqa chorvachilik mahsulotlari yetishtirilgan, ichki va tashqi bozorda sotilar edi. Ho'kizlardan yer haydashda, omoch va mola tortishda keng foydalanilar edi.

1.2. Xonliklarda sug'orish tizimining tashkil qilinishi va ulardan foydalanish

XIX asr o'rtalarida, hozirgi O'zbekiston hududida Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonliklari, ularga tegishli yarim mustaqil ma'muriy hududlar (bekliklar) mavjud edi. Bu mustaqil davlatlarda 3,5 mln.ga yaqin aholi istiqomat qilgan. Aholining 90 foizdan ko'prog'i qishloq xo'jaligi – dehqonchilik va chorvachilik bilan band edi.

XIX asr o'rtalarida va undan keyinroq ham dehqonchilikda yetishtirilgan ekinlarning ustivor joylanishi quyidagicha bo'lgan: birinchi o'rinda don ekinlarini yetishtirish turgan. Boshqali ekinlar (bug'doy; arpa) asosan lalmikor yerlarda yetishtirilgan. Sug'oriladigan yerlarda sholi, jo'xori, tariq, dukkakli ekinlar (mosh, loviya) ekilgan. Don mahsulotlari bilan qishloq aholisi o'z ehtiyojlarini va shahar aholisi ehtiyojlarini to'la qondiribgina qolmay, yetishtirilgan hosilning bir qismi qo'shni, chorva bilan shug'ullanadigan ko'chmanchi davlatlarga eksport qilingan, buning evaziga chorvachilik mahsulotlari keltirilgan.

Ikkinchi o'rinda bog'dorchilik va uzumchilik turgan, bog'dorchilik va uzumchilik mahsulotlarining bir qismi, asosan quritilgan xolda (turshak, mayiz) tashqi savdoga chiqarilgan.

Uchinchi o'rinda sabzavot va poliz ekinlari turgan.

To'rtinchi o'rinda chorvaga kerakli bo'lgan beda va boshqa ozuqa ekinlari va nihoyat, beshinchi o'rinda, paxta ekini bo'lgan. Paxtaning mahalliy navi (g'o'za) ekilgan va u asosan ichki ehtiyojlarni qondirish uchun yetishtirilgan.

Tabiiyki, ekin turlari va ularni joylashtirish masalalari bilan shug'ullanadigan biron-bir ma'muriy mahkama yoki maxsus tayinlangan shaxslar bo'lmagan. Bu masala talab va ehtiyojlarni hisobga olgan holda bozorgir mahsulot yetkazishga intilishlar ta'sirida o'z yechimini topgan. Shu sababli ayrim mahsulotlar bir yili «serob» bo'lsa, kelasi yili «taxchil» bo'lgan...²⁹

Sug'oriladigan yerlar jamoa mulki bo'lib, ularga qabila yoki urug'lar egalik qilganlar. Bora-bora ana shu jamoa mulklari chegarasida yerga egalikning yangi ko'rinishlari – yerga shaxsiy mulk sifatida egalik qilishning formalari yuzaga kelgan. Markaziy Osiyo hududida yerga egalik qilishning quyidagi ko'rinishlari (turlari) mavjud edi:

– jamoa mulki (ba'zi joylarda «sanoqli yerlar» deb atalgan) – yuqorida aytganimizdek qabila, urug' yoki keyinroq biron-bir qishloq aholisiga tegishli yerlar ko'pincha muayyan bir qishloqda ma'lum qabila yoki urug'ning vakillari qadimdan istiqomat qilganlar. Ko'p xollarda bunday yerlar lalmikor yerlar bo'lib, ularni «sanashli yerlar» deb atalishining sababi bor, albatta. Bunday yerlar odatda xar yili qabila yoki qishloq aholisi o'rtasida yil boshida (Navro'z oldidan) yangidan taqsimlangan. Bu maqsadda ko'rsatilgan kun va joyda qabila yoki qishloq aholisi o'z qo'shlari (qo'sh ho'kiz va omoch) bilan to'planishgan. Kuchi yetgan xonadonlar bir nechta qo'sh

²⁸ Usmonov Q., Jo'rayev U., Norqulov N. O'zbekiston tarixi (XVI-XIX asrning birinchi yarmi). – Toshkent., O'qituvchi, 2010. – B.49.

²⁹ Қодиров А. Ўзбекистон ирригацияси тарихидан лавҳалар. – Тошкент, 1998. – Б. 9.

bilan, kuchi yetmaganlar ikki-uch xonadon bir bo‘lib bitta qo‘sh bilan kelgan... Qishloq oqsoqoli va miroblar bor yerni yig‘ilgan qo‘shlarning soniga qarab taqsimlashgan. Jamoa a'zolariga yer taqsimlashdagi bu usul yil bo‘yi shu jamoada sodir bo‘lgan ijtimoiy, iqtisodiy va oilaviy o‘zgarishlarni inobatga olishga yordam bergan va shu nuqtai nazardan u demokratik usul deb tan olinishi mumkin.

– xususiy mulk – yerga egalik qilishning xususiy mulk «ko‘rinishidagi turi jamoa yerlari hisobiga yoki o‘z kuchi bilan suv chiqarib, masalan, suvsiz yerda korizlar yoki quduqlar qurish yordamida, «o‘lik yerlar»ni o‘zlashtirish hisobiga (Shariat ko‘rsatmalariga binoan bunday yerlar va qurilgan koriz yoki quduq suvi bilan xususiy mulk hisoblangan) shakllangan. Zamonlar o‘tishi bilan jamoaga qarashli «sanoqli yerlar» chegarasida hosil bo‘lgan bog‘-rog‘lar, uzumzorlar ularni barpo qilganlarga rag‘batlantirish maqsadida bir umrga foydalanishga berilgan, bular chegarasida esa qo‘rg‘onlar, turar-joylar yuzaga kelgan;

– amlok yerlar – amir, xonlar va hukmdorlarning yaqinlariga tegishli yerlar, ularning xususiy mulki hisoblangan;

– vaqf yerlar xususiy yer egalari tomonidan (hukmdorlar, katta yer egalari va boshqalar) Madrasa va masjidlariga, din va shariat arboblari bir umrga foydalanishga hadya qilingan yerlar, vaqfnoma asosida hujjatlashtirilgan. Bunday hujjatlar-hamma tomondan istisnosiz tan olingan va shariat tomonidan himoyalangan³⁰.

Ko‘rinib turibdiki, o‘tgan asrning o‘rtalarida yerga egalik qilishning qanday atalishidan qat‘iy nazar, asosan ikki turi mavjud ekan: jamoa (sanoqli) yerlari va shaxsiy mulk ko‘rinishidagi turlari. Faqat vaqfnoma asosida hadya qilingan yerlar, kimga berilganiga qarab, ba‘zan jamoa mulki, ba‘zan esa shaxsiy mulk sifatlariga ega bo‘lgan.

Sug‘oriladigan dehqonchilik maqsadlariga xizmat qilgan sug‘orish inshootlarining asosiy qismi mahalliy qurilish materiallari – tuproq, tosh, yog‘och, qamish, shox-shabbalar yordamida oddiy tuzilishda qilib, boshqacha aytganda, tez va arzon qurilgan, sug‘orish kanallarining o‘zanlari tuproqda (grunt) kovlangan. Bu narsa o‘z navbatida inshootlarning suv ta‘siriga chidamsiz bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Pirovard natijada suvdan foydalanuvchilar – dehqonlar deyarli butun yil davomida sug‘orish tarmoqlarida qurish, ta‘mirlash, tozalash (kanal va ariqlarni qum-loyqalardan) ishlari bilan band bo‘lishga majbur bo‘lganlar. Aniq, bo‘lmagan ma‘lumotlarga ko‘ra, har bir yeri bor dehqon sug‘orish ishlariga yiliga hashar yo‘li bilan kamida 10– ish kuni sarf qilgan. Bu miqdorni ma‘lum darajada tasdiqlash uchun xorazmlik dehqonlarning bizdan uncha olis bo‘lmagan 30–40-yillarda yirik va xo‘jalixlararo kanallar tarmoqlarida kishi boshiga yili 40–50 m³ tozalash ishlarini bajarganliklarini ko‘rsatib o‘tmoqchimiz. Bundan tashqari, ko‘plab ta‘mirlash va qayta qurish ishlarini bajarganlar. Bunda sermashaqqat va ko‘p kishilar qatnashadigan ommaviy ishlar o‘z-o‘zidan bajarilib qolmaydi, albatta. Kimlardir ularni avvaldan rejalashtirish, kerakli materiallar va ishchi kuchlarini tashkil qilishi, ularning ishiga rahbarlik qilish va nazorat o‘rnatish kerak bo‘ladi.

Qabila yoki urug‘ a‘zolari dehqonchilik, keyinchalik sug‘oriladigan dehqonchilik bilan o‘trok, xolda shug‘ullana boshlagan uzoq zamonlardan boshlab amalda sug‘orish ishlarini tashkil qilish, uni boshqarish sohasida yangidan-yangi ehtiyojlar tug‘ila boshlagani aniq, va bu fikrga shubha qilmasa ham bo‘ladi.

XIX asrning o‘rtalariga kelganda yerga egalik qilishning, u qanday atalishidan qat‘iy-nazar, ikki shakli – jamoa mulki va xususiy mulk ko‘rinishidagi shakllari mavjud bo‘lgan. Ularni asosan 3 ko‘rinishda ta‘riflash. mumkin: o‘z yerida o‘z kuchi bilan dehqonchilik qilish dehqon xo‘jaliklari ko‘rinishida, chetdan ish kuchi yollab (xaq to‘lash evaziga) dehqonchilikdilik va ortiqcha yoki tasarrufida bo‘lgan yerlarni boshqalarga ma‘lum shart-sharoitlarda foydalanishga berish (puadrat usuli) orqali dehqonchilik qilish. O‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdiki, sug‘oriladigan dehqonchilik bilan shug‘ullangan kishilar yerga nisbatan, undan olinadigan, foydaga nisbatan

³⁰ Муҳаммаджонов А.Р. Ўзбекистоннинг қадимги гидротехника иншоотлари. – Тошкент: «Ўзбекистон», 1997.

turlicha munosabatlarda bo‘lganlar va tegishli haq-huquqlarga ega bo‘lganlar. Shu bois ko‘pchilik kuchi va mablag‘lari evaziga bajariladigan sug‘orish ishlarida hammaning bir xilda qatnashishi nafaqat insof yuzasidan, o‘sha zamon shariat qonun-qoidalari va odatlari nuqtai nazaridan ham adolatdan emas edi³¹.

XIX asr o‘rtalariga kelib Zarafshon daryosida suv tanqisligi yanada qiyinlashadi. XVII–XVIII asrlarda qurilgan ravoqli ko‘prik – suv ayirgich inshootlari buzilib ishdan chiqqan. Mavjud bo‘lgan boshqaruv tizimlari ham susayib qolgan edi. Shu sababdan amir Devonida xizmat qilgan, zamonasining ilg‘or fikrli kishisi, shoir Axmad Donish Buxoro yerlarini Amudaryo suvi bilan Kerki shahri yaqinidan boshlanadigan yirik kanal yordamida sug‘orish g‘oyasini taklif qiladi, lekin texnikaviy, iqtisodiy va boshqa sabablarga ko‘ra uni amalga oshirishning iloji bo‘lmagan³².

Sug‘orish tizimi boshqaruvining «Xorazm modeli» boshqacha bo‘lgan. Xorazm voxasida sug‘orish tizimlari boshqaruvining «pog‘onalari» mahalliy shart-sharoitlar moxiyatidan kelib chiqib boshqacharoq bo‘lishi tabiiydir. Yuzlab kilometrga cho‘zilib ketgan yirik sug‘orish kanallari, ularning «ko‘p boshli», ixota to‘g‘on (damba)lari bilan himoyalangan boshlanish qismidan foydalanish, ekspluatatsiya qilish, kanallarda har yili bajariladigan bir necha millionlab kubometrga teng qazuv;tozalash ishlari xamda sug‘orish tizimining o‘ziga xosligi (yirik kanallarning boshlanish qismi «soqqa» deb atalgan, toshsoqqa, magistral kanal – «arna», Paxta-arna, bo‘luvchi kanal – yob, «Sovet-yob», kanal tarmoqlari yoki shoxobchalari – «bedaklar» xamda dalaga suv keltiruvchi doimiy ariqlar «solmalar», kanal bosh inshooti – bedrov» va xokazolar) boshqaruv ishini tashkil qilishda va amalga oshirishda ma‘lum aniqlik va mustahkam intizom bo‘lishini taqozo qilgan. Shu bois yaxlit va murakkab sug‘orish tizimiga kirgan uning tarkibiy qismlaridan foydalanish, ishlarni tashkil qilish va nazorat o‘rnatish mas‘ul shaxslarga topshirilgan. Xon devonida ham bu ishlarga mutasaddi qilib yuqori lavozimli mansabdor shaxs tayinlangan³³.

Agar sug‘orish tizimlari boshqaruvining Zarafshon va Xorazm «modellari»ga yana qaytadigan bo‘lsak, ular o‘z moxiyati va ma‘nosi bilan biz hozir biladigan va uzoq o‘n yilliklar davomida ko‘nikma hosil qilgan irrigatsiyada boshqaruvning «ma‘muriy-hududiy» prinsiplarda tuzilgan ko‘rinishi emas, balki «texnologik hududiy» asoslarda tuzilgan ko‘rinishi edi. Bu detal so‘z – boshqaruv hududlarining chegaralari, binobarin boshqaruv pog‘onalari aniqlanganda ana shu hududlarning ma‘muriy-siyosiy chegaralari (viloyat, tuman emas, balki biron-bir-sug‘orish tizimi suv bilan ta‘minlaydigan hudud chegaralari va uning bo‘laklari asos qilib olinadi³⁴.

Qizig‘i shundaki, bu lavozimlarni egallash uncha-muncha odamning qo‘lidan kelavermasdi. Masalan, mirob lavozimiga, biron-bir qishloq dehqonlarining yoki urug‘ vakillarining yig‘inida o‘z oralaridan ishbilarmon, sofdil va insofli odam (odamlar) nomzod qilib ko‘rsatilib, demokratik usulda (ya‘ni ovoz berish yo‘li bilan) saylanardi va u ana shu qishloq aholisi oldida javobgar hisoblanardi. mirobning vazifasiga manba (daryo, soy, anhor va h.)dan kanalga suv chiqarish, uni ariqlar yordamida dalalarga haydab kelish va dehqonlarga bo‘lib berish bilan bog‘liq barcha ishlarni (ariq kovlash, inshoot qurish, tozalash va ta‘mirlash ishlari, suvni bo‘lish kabi) bajarishda suvdan foydalanuvchi, ya‘ni dehqonlarga yaqindan yordam berish, ularni shu ishlarga tashkil qilish kiradi. Demak, mirob maxsus amaliy bilim va tajribadan tashqari, shariat-odat qonun-qoidalaridan xabardor, odamlarning boshini qovushtirib ishlatish qo‘lidan keladigan ish boshi ham bo‘lishi kerak. Agar mirob o‘z ishining uddasidan chiqmayotgani ayon bo‘lib qolsa, qishloq

³¹ Қодиров А. Ўзбекистон ирригацияси ... 1998. – Б. 41.

³² Гулямов Я.Г. К изучению древних водных сооружений в Узбекистане. Изв. АН УзССР, 1955, №2. – С. 42.

³³ Жабборов И. Ўзбек халқ этнографияси. – Тошкент, 1994. – Б. 78.

³⁴ Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. – Ташкент, 1957. – С. 89.

yoki urug' yig'ilishi uni boshqa miroblikka da'vogar kishi (dehqon) bilan demokratik usulda almashtirish imkoniyatiga bo'lgan.

Ariq oqsoqoli odatda, bir nechta qishloq yerlari suv beradigan yirik kanal (ariq) boshida turgan, uning qo'l ostida bir nechta miroblar o'z ariqlari ishiga boshchilik qilganlar. Ariq oqsoqollari lavozimi dastlabki davrlarda miroblar ichidan eng obro'li ishbilarmonlari tanlab olingan va saylangan. Bu ham qishloqlar aholisi yoki ularning vakillari ishtirokida yoki roziligida amalga oshirilgan³⁵.

Ariq oqsoqollarining vazifasiga asosiy kanal uning boshlanishida bajariladigan barcha ishlar (inshoot, to'g'on qurish yoki uni ta'mirlash, bosh kanal tozalash, ta'mirlash va h.lar)ning vaqti va xajmlarini aniqlash, har qaysi mirob boshchiligida bajariladigan ishlarining hajmi, vaqti, kerakli qurilish materiallari, ulov vositalari va boshqalarni aniqlash va miroblar zimmasiga taqsimlab berish, bu ishlar bajarishda yordam ko'rsatish, barcha janjalli va niizoli ishlarni tezda bartaraf qilishda ularga ko'maklashishlar kirgan. Xullas, ariq oqsoqollari yoki qishloqlar yoki urug'lararo darajadagi lavozim bo'lgan ular shunga yarasha obro'-e'tiborga ega bo'lganlar. Zamonlar o'tib ayrim hududlarda ariq oqsoqoli mirob lavozimlari otadan bolaga meros bo'lib qoladigan lavozimga aylangan, ularning bir nechta avlod bo'g'inlaridan iborat shajaralari (dinastiyalari) ham paydo bo'lgan. Lekin ularning ishlariga jamoa ishtirokida baho berish, nazorat qilish hamma hollarda ham asosan saqlanib qolavergan.

Manbadan chiqarilgan suvni suvdan foydalanuvchilar (dehqonlar)ga bo'lib berishda mayda hududiy qishloq, jamoalari muhim rol o'ynagani ma'lum. Bunday jamoalarni Xorazmda «jabdi», Zarafshon vodiysida «qo'sh», Farg'ona vodiysida «ketmon», Qashqadaryoda «paykal», Toshkent vohasida «tup» va hokazo deb atalgani ma'lum. Ular bajargan ish va olinadigan suv o'zaro bog'liq bo'lgan³⁶.

Har qaysi birlashgan jamoa o'z rahnamosi yoki oqsoqoliga (jabdiboshi, qo'shboshi, tupboshiga.) ega bo'lgan va u miroblar bilan hamkorlikda ishlagan, hashar ishlarini tashkil qilishda yordam bergan, shunga o'xshash ishlarni tashkil qilishda yuqori ma'muriyat oldida javobgar hisoblangan. Lekin bunday vertikal bo'yicha yuqori ma'muriyat oldida javob berish mas'uliyati qay darajada keng tarqalganligi to'g'risida aniqroq ma'lumotlar yo'q.

Shunday qilib biron-bir sug'orish tizimi (kanallar va inshootlar majmuasi)ni qurib, uning ish faoliyatini tashkil qilish vazifasini «ariq oqsoqoli miroblar – to'g'onchilar»dan iborat irrigatorlar guruhi bajargan «to'g'onchilar» orasida «sepoyachilik». «chorpoyachilik» ishlarini yaxshi egallagan va shu ish bilan doimiy shug'ullanuvchilar ham bo'lgan).

Irrigatorlar guruhi suvdan foydalanuvchilar bilan birgalikda ularning kuchi va mablag'i hisobiga, suvni manbalardan kerakli vaqtlarda haydab kelib ularga bo'lib berish maqsadlarida xizmat qilganlar. biz bu yerda sug'orish ishlarining tashkiliy tomonlarini shu tarzda hal qilinishiga zamdu sanolar o'qish niyatida emasmiz, boz ustiga ariq oqsoqollari, miroblar va to'g'onchilar guruhlar turli-tuman toifadagi. va xarakterdagi odamlardan tashkil topgani, ular orasida ko'proq o'z manfaatini o'ylaydigan va noinsoflari ham bo'lgani shubhasiz. Lekin baribir, agar o'sha davr jamiyat taraqqiyot darajasi, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy imkoniyatlar va shart-sharoitlar majmuini nazarga olsak, ent ko'p tarqalgan qiyin sug'orish ishlarini tashkil qilishda mubolag'asiz demokrat) tamoillarga asoslangan bunday ma'muriy-tashkiliy boshqaruv usulining keng qo'llanishi sug'oriladigan dehqonchilikning rivojlanishida ijobiy, rag'batlantiruvchi omil bo'lib xizmat qilgan deyishga xamma asoslarimiz bor³⁷.

Shu o'rinda asrlar osha avloddan-avlodga o'tib bizgacha yetib kelgan ajoyib qadriyatlarimizdan biri to'g'risida so'z yuritmoqchimiz. Gap shundaki, sermashaqqat; va keng

³⁵ Кадыров А.А., Дерлятка Т.И. Разработать концепции функционирование и развитие эксплуатации гидромелиоративных систем в условиях рыночной экономики» (применительно к Республике Узбекистан). – Ташкент, 1992. – С. 31.

³⁶ Гулямов Я.Г. История орошения ... 1957. – С. 74.

³⁷ Қодиров А. Ўзбекистон ирригацияси ... 1998. – Б. 47.

ko'lamdagi sug'orish ishlarini qisqa muddatlarda va faqat qo'l kuchi bilan bajarishga to'g'ri kelgan. Ayniqsa, ariqlarga suv chiqaruvchi inshootlar suv buzib ketganda yoki ayni sug'orish ishlari eng qizigan paytlarda loy-qumga to'lib qolgan ariqlar tozalash kerak bo'lganda, bunday ishlarni bajarish uchun suvdan foydalanuvchilar ixtiyorida oylar emas kunlar, hatto soatlar bo'lgan, xolos. Bunday paytlar odamlar bir yoqadan bosh chiqarib mirob va to'g'onchilar rahbarligida lozim bo'lgan ishlarni tez va sansalarsiz bajarganlar, shunga ularni sharoit majbur qilgan. Bora-bora sug'orish kanallari va inshootlarida: barcha ishlarni (qurish, ta'mirlash, tozalash va xokazo hatto, oila, qarindosh-urug', mahalla-ko'ylarda bajariladigan shaxsiy va ommaviy ishlarni bajarish ham, birgalashib hshar yo'li bilan bajarish hamma tan oladigan odat tusiga kirgan, Shariat va Odat qonun qoidalarida o'z aksini topgan³⁸.

Baxtga qarshi o'sha davrda hshar yo'li bilan bajarilgan sug'orish ishlarining miqdoriy ko'rsatgichlari (umumiy hajmi, kishi boshiga bir kunda yoki bir gektar (desyatina) boshiga bajarilgan ishlar to'g'risida bizda aniqroq. ma'lumotlar yo'q.. Bu «hshar usuli» to'g'risida aytilgan barcha iliq so'zlar umumiy gap darajasida qolaveradi.

1579–1588 yillar, Buxoroning hukmdori Abdullaxonning (1507–159 yozma buyrug'iga muvofiq, Vaxsh daryosidan suv oladigan kanal qurilishiga Xisor, Denov va Qobodiyondan (Surxondaryo vodiysi) 10 ming mardikor safarbar qilindi (Badriddin Kashmiri). 1828 yilda Polvonyob kanalining yangi boshini qurish uchun Xiva xoni Olloquli 40 ming kishini haydab keltirdi³⁹.

Feodal ishlab chiqarish uslubi sharoitida davlat sug'orish inshootlari qurilishi uchun mablar xam, qurilish materiallari ham ajratmas edi, shu bois suv xo'jaligiga tegishli barcha chora-tadbirlar mehnatkash xalqning juda katta mablag'lari va kuchlari hisobiga amalga oshirilar edi. Masalan, tarixiy hujjatlarning ko'rsatishicha, Ravotxo'ja suv ayirgich inshootini ta'mirlash uchun har yili bahorda 1436 nafar ishchi ajratilar va 54 ming donaga yaqin shox-shabba va toshlardan yasalgan to'shak (fashin tyufyak)lar, mingaab somon bog'lari va kerakli transport-ulov vositalari keltirilar edi («Samarqand tarixi»). Erta bahorda va kech kuzda mardikorlarning mexnati hukumatning ko'rsatmasiga muvofiq ishlatilar edi. Ularning shaxsiy dalalari qarovsiz qolardi, xo'jaliklari parokandalikka uchrardi⁴⁰.

70 km uzunlikdagi Katta Farg'ona kanalini qazish ishlari 1939 yilning 1 avgust kuni kanal trassasining barcha uchastkalarida bir vaqtda boshlandi. Har kuni qazish ishlariga Farg'ona vodiysining 16 rayon, 2140 ta kolxozlaridan kelgan 160 ming kishi chiqar edi.

KFKning o'zani qisqa muddatda – 45 kunda 6200 ming ish kuni sarflab kovlandi. Kanal bo'yicha bajarilgan yer ishlarining umumiy hajmi 18,2 mln. m.³ga teng bo'ldi, shu jumladan, faqat 1,7 mln. m.³ yoki 9 foizi mexanizmlar yordamida bajarildi. Bunday fidoyilik va jonbozlik oldida har qancha ta'zim qilib bosh egsa arziydi. faqat qo'l kuchi bilan bajarilgan yer ishlari 16,5-mln. m.³ni tashkil qilgan ekan, har bir ish kuni davomida bitta yer qazuvchi 2,5 m³ tuproqni kovlab, uni (salkam 5 tonna yukni) o'zan tashqarisiga – o'rtacha 4–5 m chuqurlikdan 20–25 uzoqlikka – chiqarib tashlagan. Urushdan avvalgi yillarda bajarilgan ishga «qo'shib yozish»lar respublika hayotida hali uchramaydigan favqulodda bir narsa, gunohi azim hisoblanardi, shuning uchun ham keltirilgan raqamlarga astoydil ishonsa bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan raqam va dalillardan yaqqol ko'rinib turibdiki, bugungi O'zbekiston chegaralari bilan aniqlanuvchi hududda o'tgan asr o'rtalarida ham undan oldin va xatto, sho'rolar hukmronligining dastlabki o'n yilliklarida ham, katta-kichik hajmda sug'orish ishlariga o'n minglab, yuz minglab suvdan foydalanuvchilar – dehqonlar jalb qilingan va ular hshar usulida, ya'ni hych kimdan sariq chaqa ham olmay, o'z kuchlari va mablag'lari hisobiga juda katta hajmdagi ishlarni bajarib keldilar va bu ular uchun qon-qoniga singib ketgan tabiiy bir narsa, odat tusga kirgan va vijdon amri hamda turmush taqozosi bilan bajariladigan barcha uchun

³⁸ Васикова М.С. Развитие водного ... 1976. – С. 96.

³⁹ Ирригация Узбекистана. – Ташкент: «Фан», 1975. – С. 48.

⁴⁰ М о р г у н е н к о в Ф. Использование свободных водно-земельных ресурсов в Туркестане, Хиве и Бухаре // «Вестник ирригации», 1923. №3, 4. – С. 3

barobar bir ish edi. Taassufki, mazkur kitobimda Katta Farg‘ona kanali va shunga o‘xshash ko‘plab boshqa sug‘orish inshootlari hashar usuli bilan. qurilgani to‘g‘risida lom-mim deyilmaydi, uni o‘rniga yangi atama – «tezkor xalq qurilishi usul ishlatiladi».

«Pravda» ro‘znomasi o‘zining 1939 yil 30 dekabr kuni chiqqan sonida shunday deb yozgan edi: «Farg‘ona kanalining ahamiyati eng avvalo shundaki, u xalqning yangi ishlar uchun, ozod ongli sotsialistik mehnatning yangi formalari uchun pishib yetishgan qudratli kuchlarini namoyon qildi...» Agar biz shu fikrga qo‘shiladigan bo‘lsak, u xolda «o‘tgan asrlarda, hali feodal ishlab chiqarish hukmron bo‘lgan, sotsializm atamasi va nazariyasini yaratgan zotlar hali tug‘ilmagan zamonlarda hashar usuli bilan qurilgan o‘nlab va yuzlab yirik kanallarning qurilishi nimalarni yoki qanday kuchlarni namoyon qildi ekan?»- degan savolga javob topishimizga to‘g‘ri keladi...

Ma'lumki, umuminsoniy qadriyatlar vaqt va chegarilarni pisand qilmay davom etaveradi. Ularning paydo bo‘lishi va shakllanishi to‘g‘risida donolarning aytgan fikr-o‘ylari biz uchun juda muhimdir. Rus pedagogi S. Makarenko bola tarbiyasi to‘g‘risida gapirar ekan, «biz bolalarni jamoa ichida, jamoa yordamida va jamoa uchun tarbiyalashimiz kerak» degan g‘oyani ilgari surgan edi. Binobarin, inson bolasining tarbiyasida nafaqat uning bolalik yillarida, mubolag‘asiz, butun umri davomida, jamoaning, jamoa bo‘lib bajarilgan ishlarining o‘rni benihoya kattadir. Ota-bobolarimiz sermashaqqat va katta hajmdagi sug‘orish ishlarini yil davomida birgalashib hashar yo‘li bilan jamoa nazoratida bajarar ekanlar, o‘zlarini tanigandan-boshlab katta hayot maktabini o‘taganlar, oliyjanob insoniy fazilatlar o‘zaro yordam va qo‘llab-quvvatlash, birovlarga pand bermaslik, tartib va intizom, o‘zidan kattalarni, shu jumladan, boshliqlarni hurmat qilish) egasi bo‘lishga intilganlar. Bugun biz o‘zbek, millatining o‘ziga xos mentaliteti, ichki dunyosi bilan turmush tarzi haqida gapirganimizda, ana shu o‘ziga xoslikning paydo bo‘lib shakllanishida kundalik hayotda uchraydigan barcha ish, to‘siq va qiyinchiliklarni birgalashib, ko‘plashib, hashap usuli bilan yengish va bartaraf qilishga asrlar davomida odatlanganimiz katta rol o‘ynaganini unutmashimiz kerak va yana musulmonlarning muqaddas sinalmish kitoblari Qur‘oni Karim va Hadisi Sharifda keltirilgan ko‘rsatma va hikoyatlar hukmdorlar va boshliqlarga itoat qilishlik, farzandlarning ota-onalari oldidagi burchi va vazifalari, insonlarning jamiyatdagi burchi va vazifalari va boshqalar) hamda Shariat va Odatning yozma va og‘zaki ko‘rsatmalari, qonun-qoidalari kundalik hayotda bexisob takrorlanar va amalda qo‘llanilar ekan, o‘zbek millati, umuman Markaziy Osiyo mintaqasida yashovchi xalqlar turmush tarziga chuqur ta‘sir qilgani shubhasizdir⁴¹.

Sug‘orish ishlarini bajarishda tashkiliy-boshqaruv masalalari to‘g‘risida aytgan gaplarimizga yakun yasar ekanmiz, quyidagilarni ta‘kidlamoqchimiz:

o‘tgan asr o‘rtalarida bugungi O‘zbekiston chegralarida 1,5 mln. gektardan ortiq. yerlar sug‘orilg Bu yerlarni sug‘orish uchun garchi juda oddiy, arzon binobarin, suv oqimi ta‘siriga uncha chidamli bo‘lgan, lekin yetarli miqdorda sug‘orish kanal va ariqlari, gidrotexnika inshootlari, ya‘ni sug‘orish tizimlari bo‘lgan; Bu sug‘orish tizimlari son jihatid juda ko‘p o‘zaro tashkiliy va funksional bog‘liq bo‘lmaganlar va eng muhimi, bu tizimlarda sermashaqqat katta hajmdagi sug‘orish ishlarini qo‘l kuchi bilan bajarishga to‘g‘ri kelgan;

lekin sanab o‘tilgan shart-sharoit va qiyinchililarga qaramay, ota-bobolarimiz sug‘orish ishlari tashkil qilish va boshqarish sohasida eng sodda, mavjud sharoitlarga moslashuvchan, demokratik prinsiplarga asoslangan «tashkiliy-boshqaruv tizimi»ni yarata bilganlar;

ariq oqsoqoli – mirob – to‘g‘onchilar o‘z faoliyatlarida asosan suvdan foydalanuvchilar – dehqonlarning shaxsiy kuch va mablag‘lariga tayanganlar, ishlar tashkil qilib, ularni bajarishda esa jamoa bo‘lib hashar yo‘li bilan amalga oshirish asosiy texnologiya usuli bo‘lgan.

⁴¹ Каценеленбаум З.С. Мелиорация, мелиоративные товарищества и мелиоративный кредит. – М., 1919. – С. 203.

II BOB. XVIII-XIX ASR O'RTA OSIYO XONLIKLARIDA IRRIGATSIYA TIZIMI VA SUG'ORISH ISHLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

2.1. Mang'itlar sulolasi hukmronligi davri Buxoro amirligi irrigatsiya tizimidagi o'zgarishlar

Buxoro xonligi aholisining asosiy mehnat mashg'uloti dehqonchilik va chorvachilik hisoblangan. Xonlikning tekislikda yashovchi aholisi asosan dehqonchilik bilan shug'ullanib, ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholi esa o'zining qishki tururgohi yaqinidagi yerlarga ishlov berib, ekin ekish bilan shug'ullanadilar. Xonlik hududining ko'p joylari unumdor tuproqqa ega, dehqonchilik qilish uchun qulay bo'lgan yerlardan iborat. Bu yerlarga yetarlicha ishlov berilgan taqdirda ulkan hosil olish mumkin va hych qanday hosil isrofligiga yo'l qo'yilmaydi. Bunday holat yuz bergan taqdirda ham buning sababini sug'oriladigan yerlar uchun suv yetishmasligi deb baholash mumkin bo'ladi. Xonlikning katta hududidagi issiq va quruq havoning hukmronligi sun'iy sug'orish inshootlarini qurishni, o'z navbatida qiyin va og'ir sharoitlarda ham ishlay oladigan sug'orish inshootlarini qurishni talab qiladi. Hosil unumdorligini hisobga olgan holda, barcha maydonlarga xonakilashtirilgan ekinlar ekish, umumiy maydonni 10 foizi yetarli darajada suv bilan ta'minlanishini hisobga olib ularda hosil ikki marotaba ham olish mumkin. Xonlik hududidan oqib o'tuvchi barcha ochiq suv havzalari (Amudaryo, Surxon, Kofirixon va Vaxsh)ning suvlari xonlik yerlarini sug'orish ishlariga oxirgi tomchisiga sarflab yuborilgan⁴². Faqatgina sanab o'tilgan daryolar suvlari katta va ulakan sug'orish inshootlari qurishni talab qiladi. Bunday inshootlar sug'orish qiyin bo'lgan amaldorlarning yerlari va alohida qishloqlar yaqinida sun'iy sug'orish ishlarini yaxshilash uchun qurilgan. Sug'oriladigan yerlarda bug'doy, sholi, beda, kunjut, sedana, paxta, tamaki (asosan Qarshi shahri atrofida), kanop va boshqa ekinlar ekilgan. Eng asosiy dehqonchilik mahsulotlaridan biri paxta bo'lib, uning hosildorligi 1,5 million pudgacha yetgan. Uning asosiy qismi Rossiya mamlakatiga chiqarilgan. Shuningdek, ayrim dala ekinlari, bahor va yoz faslining yuqori harorati tufayli tez pishib yetiladi. Shuningdek, tesliklarda yoz faslining issiq iqlimi uzoq vaqt hukmronlik qilgani sababli, maydonlarga ikkinchi ekinni ekish maqsadga muvofiq va ekinlardan to'lov tushgunigacha ikkinchi marta hosil olish mumkin. Eng ko'p suv sarflanadigan sholi uchun asosan suv bilan uzuluksiz ta'minlanadigan yerlar tanlanib, unga shu yerdagi barcha suv manbalari safarbar qilinadi. Shuningdek aholi ishlov beriladigan yerlardan tashqari 4-8 ming fut balandlikda lalmikor yerlarga ham ekin ekib, butun yoz davrida bu yerlar yomg'ir va qor suvlari bilan sug'oriladi. Bunday yerlarga odatda bug'doy va arpa ekilgan.

Buxoro davlatida yer-suv mulkchiligining uch shakli mavjud edi: 1) davlat yerlari (bu amlok yerlar deb ham atalgan); 2) mulk yerlari (xususiy); 3) vaqf yerlari.

Davlat yerlarining suvsiz dasht, to'qayzor qismi ko'chmanchi jamoalaiga bo'lib berilgan bo'lib, ular bu yerlardan foydalanganliklari uchun davlatga xiroj to'lar edilar. Bunday yerlar sotilmasdi va ayirboshlanmasdi. Davlat yerlarining boshqa bir qismi hukmron sulola a'zolariga, yirik davlat mansabdorlariga, lashkarboshilariga davlat oldidagi xizmatlari evaziga suyurg'ol shaklida in'om etilgan edi. Suyurg'ol olganlar u yerni boshqarish huquqini ham olganlar. Suyurg'ol egasi davlat xazinasiga xiroj to'lashi hamda oliy hukmdorning chaqirig'iga ko'ra o'z qo'shini bilan harbiy yurishlarda ishtirok etishi lozim edi.

XVI asrdan boshlab davlat yerlarini «tanho» deb nom olgan shaklda in'om etish qaror topa borgan. Bunday irfomga sazovor bo'lgan kishi yerga emas, shu yerdan olinadigan soliqqa egalik qilgan. XIX asrning birinchi choragida amirlikda tanholarning soni 12 mingdan 36 ming nafarga yetgan. Eng kichik tanho yeri 3–5 gektarni tashkil etgan.

Davlat yerlarining yana bir qismi dehqonlarga ijaraga berilgan. Xazinaga eng ko'p soliq ham ana shu yerlardan tushar edi.

⁴² www.wikipedia.ru.

Xususiy yerlar (mulk) ning bir qismi xususiy shaxslarning yerlari bo'lib, ularning bu yerlarga egalik qilishlari davlat xizmati bilan bog'liq bo'lmagan. Bunday yerlar, asosan, amirlikda asrlar osha yashab kelayotgan arablarga qarashli yerlar bo'lgan. Bu yerlardan 1/10 qismi miqdorida o'lpon to'lanardi. Mulk yerlarining ikkinchi qismi (mulki hur yoki mulki hurri xolis) davlat xizmati bilan bog'liq bo'lib, bunday yerlar urushlarda jasorat ko'rsatgan yoki hukmdorning alohida topshiriqlarini bajarishda namuna ko'rsatgan shaxslarga berish natijasida vujudga kelgan. Bunday yerga ega bo'lgan shaxslarga maxsus yorliqlar berilgan hamda ular barcha soliqlardan ozod etilganlar.

Vaqf yerlari – bu masjid, mozor, xonaqoh, madrasa va maqbaralar uchun ajratilgan yerlar edi. Bunday yerlar musodara etilgan, davlat hamda yirik yer egalari tomonidan hadya etilgan yerlar hisobiga vujudga keltirilgan edi. Masjid, madrasa, qabriston-larning asosiy sarf-xarajatlari, shuningdek, talaba, mudarris hamda mutavallilarga beriladigan nafaqa va maoshlar vaqf yerlaridan olinadigan daromad hisobidan qoplanar edi. Vaqf mulkini mutavalli tasarruf etishi belgilab qo'yilgan edi.

Shohmurod zamonida har bir ziroatchidan qo'shpuli (har qo'sh (48–50 tanob) yerdan 40 tiyin) olingan. 1807-yili amir Haydarning bir yorlig'ida har tanob⁴³

yerdan bir tillodan tanobona olinishi zarurligi ko'rsatilgan. Agar ekinzor egasi tanobona to'lashdan bosh tortsa, hosilning uchdan bir qismi mol (xiroj) tariqasida olingan. Ba'zida xiroj hosilning yarmini tashkil etgan.

XV – XVII asrdan zakot solig'i beva-bechoralar, musofirlar foydasiga olingan bo'lsa, XVIII asrdan boshlab xazina foydasiga olinadigan bo'ldi.

Kanallar, inshoot, qal'a, ko'priklar, yo'llar ta'miri hashar yo'li bilan amalga oshirilgan. Boshda hasharchilar oziq-ovqat bilan ta'minlangan. XVIII asrdan boshlab hasharga keluvchilar oziq-ovqati, ish asboblari, ot-aravasi bilan kelishi lozim bo'lgan.

O'rta Osiyoda, jumladan, Buxoro davlatida ham qishloq xo'jaligining taqdiri sun'iy sug'orishning qanchalik to'g'ri hal etilganligiga bog'liq edi.

Shuning uchun ham XVIII asrda sug'orish tarmoqlarining kengaytirilishiga alohida e'tibor berildi. Zarafshon daryosida Xurmo va Sarazm nahr(ariq)lari chiqarilgan. Ularning biri to'rt chaqirim, ikkinchisi uch chaqirim uzunlikda bo'lgan.

Amir Shohmurod zamonida 40 chaqirim uzunlikdagi Qozonariq (Urgut tumanini sug'organ), 24 chaqirim uzunlikdagi Toyman arig'i, 24 chaqirim uzunlikdagi To'g'uzariq qazilgan. Yana Oqdaryo va Qoradaryodan ham nahrilar chiqarilgan⁴⁴.

Sug'orish inshootlarini yaroqli holda saqlashning og'ir yuki mehnatkashlar gardanida edi. Aynan ularning matonatli mehnati, sabr-toqati, sug'orish inshootlarining muqim ishlashini ta'minlar edi. Dehqonlar suvdan foydalanishda asrlar davomida juda katta tajriba to'plagan edilar. Ular shunday sug'orish inshootlarini bunyod eta oladilarki, unga tan bermaslikning iloji yo'q edi. Xususan, suv ayirg'ich to'g'oni qurishdagi mohirlik buning isbotidir. Masalan, suv oqimi qiya va tez bo'lgan tog' daryolari hamda soylarda suv ayirg'ich (sepoya)lar, tinch oqadigan daryolarda shox-shabbadan qurilgan to'g'onlar, Amudaryodek chuqur va tezoqar daryolarda esa ko'p boshli suv ayirg'ichlar qurganlar. Ayrim joylarda esa yirik to'g'onlar qurilgan.

Daryo va kanallarga o'rnatilgan chig'irich eng ko'p ishlatiladigan suv ayirg'ich edi. Shunday chig'iriqlar ham yaratilganki, ular suvni hatto 4 metr va undan ham balandga chiqarib bera olardi. Suvni chuqur ariqlardan chiqarib olish uchun tutqichli suv ayirg'ichlar ishlatilar, bunda ot, tuya, eshak va ho'kiz kuchidan foydalanilar edi. XIX asrda birgina Amudaryoning quyi oqimida 600 mingdan kokproq chig'irich o'rnatilgan edi. Bu kabi inshootlar Buxoro xonligi

⁴³ Tanob (chilvir, arqon): ekin maydonini o'lchash uchun qo'llaniladigan yuza birligi. Tanob yer maydoni 8,33 sotixga teng bo'lgan 1 ga yer esa 12 tanobni tashkil etgan.

⁴⁴Қодиров А. Ўзбекистон ирригацияси ... 1998. – Б. 47.

xo'jaligida katta o'rin tutgan. Bu hayot ta'minati bo'lgan inshootlarning bosh bunyodkori, dalalarni hosildor yerlarga aylantirgan asosiy kuch – dehqonlar ommasi edi. Har bir dehqon xonadoni yiliga 60 kundan 100 kungacha sug'oiish inshootlari qurish, kanal va ariqlarni tozalash, sozlash ishlarida qatnashishga majbur edilar.

Dehqonchilik tnehnat qurollari nihoyatda sodda edi. Oddiy dehqon so'qasi (omoch) asosiy dehqonchilik quroli edi. Ot, ho'kiz, sigir, tuya, eshak dehqonning suyanchigi hisoblangan. Yaxshiyamki, O'zbekiston tuprogi hosildor, iqlimi qulay mamlakatdir. Shu ikki muhim omil ham oddiy ishlab chiqaruvchi kuchlar bilan ancha serhosil va unumdor dehqonchilikni yo'lga qo'yish imkonini berardi.

Amirlik yerlarida paxta, bug'doy, jo'xori, tariq, arpa, beda yetishtirish dehqonchilikning asosini tashkil etardi. Deyarli har bir dehqon xo'jaligida o'z ehtiyoji va sotish uchun paxta yetishtirilardi. Ipakchilik ham rivoj topgan edi. Bog'dorchilik, sabzavotchilik va polizchilik keng rivojlangan. Piyoz, sabzi, bodring, qovoq, qovun, tarvuz, olma, olxo'ri, o'rik, shaftoli, nok, yong'oq, bodom, anjir, uzum yetishtirilardi. Buxoro amirligi o'zining qovun va uzumi bilan mashhur edi. Ayni paytda, bog'dorchilik ham yaxshi rivojlangan. Hatto ko'pgina shaharlarni bog'lar o'rab turardi. 4 qismdan iborat alohida neja asosida bnyod etilgan bog'lar ham bo'Mardi. Bog' qismlarining har birini ariqlar ajratib turgan. Bunday bog'lar chorbog' deb atalgan.

Buxorodagi Jo'ybor, Toshkentdagi Kaykovus bog'lari eng mashhur bog'lar edi.

Amirlikda bo'yoq olinadigan o'simlik – mardona ham o'stirilgan. Dorivor o'simliklardan esa dorilar tayyorlashgan.

Amirlikda, garchand salmog'i dehqonchilikdan pastroq bo'lsa-da, chorvachilik ham rivojlangan.

Chorvachilik tumanlarida dumbali va qorako'l qo'ylar, yirik shoxli qoramollar, tuya va otlar boqilgan. Jun, teri, go'sht, sut-qatiq va yog' kabi chorvahilik mahsulotlari xalq hayotida muhim rol o'ynagan.

Buxoro xonligining iqlim sharoitidan kelib, uning hududini tabiiy ravishda sug'oradigan suv manbalari –yomg'irlarning yillik miqdori katta bo'lgan, ammo xonlikning barcha hududida ham tabiiy ravishda yomg'ir yog'ishi teng miqdorda bo'lmagan. Xonlikning sharqiy tog'lik qismida yog'in miqdorining ko'pligini bu mintaqaning dengiz sathidan yuqoriligi, shu tufayli qor va muzliklarni uzoq vaqt erimasdan turishiga sabab bo'lgan. Ushbu qor va muzliklardan juda ko'plab daryo va irmoqlar suv olib, xonlikning asosiy suv manbasi Amudaryoga borib quyilgan. Bunday sharoitda Sharqiy Buxoroda ekinlarni sug'orish uchun suv yetarli bo'lib, chorvachilik rivoji uchun ham muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Xonlikning tekisliklar bilan qoplangan g'arbiy qismida yog'inlar juda kam yog'adi, qorlar juda tez erib ketadi, shu sababdan bu hudud har doim qurg'oqchilikdan azob chekadi. Unumdor yerlarga suv kamligi uchun ishlov berish qiyin kechadi, chorva boqish uchun qulay payt erta bahor va kech kuzga to'g'ri kelib, bu hududdan suv tanqisligi sababli savdo karvonlari juda kam harakatlanadi. Buxoro xonligining barcha daryolari Amudaryo tizimiga tegishli bo'lib, ulardan juda ko'pchiligi hozirgi paytda o'z suvlarini daryoga ham eltishga ulgurmay ekinlarni sug'orish, ko'llarni to'ldirish uchun ishlatib yuboriladi. Amu-Daryo Panj va Vaxsh daryolarining qo'shilishidan hosil bo'lib, pomir tog'laridan katta hajmdagi suvni daryoga olib keladi. Amudaryoning xonlik davridagi eng katta irmoqlari Kofirnihon va Surxon bo'lgan.

Daryoning chap qirg'og'idan kelib quyiluvchi irmoqlari Hindukush tog'laridan boshlanib, yo'l-yo'lakay ekin maydonlarini sug'orish uchun ishlatib yuboriladi. Shu sababdan ularning suvlari daryoga yetib bormaydi. Vniz po techeniyu Amu-Darya stanovitsya shire i na ney poyavlyayutsya ostrova; Xonlik davrida daryoda yuk tashish faqat Surxondaryoda 800-1000 pud yuk ko'tara oladigan qayiqlarda olib borilgan. Zarafshon daryosi Oloy tizma tog'laridagi Zarafshon muzligidan boshlanib, Kattaqo'rg'on yaqinidagi Xo'ja qo'rg'on qishlog'i yaqinidan xonlik yerlarini sug'orishni boshlaydi. G'arbga qarab harakatlangan sari undan ko'plab kanallar qazib chiqarilgan, natijada uchun suvi kamayib, yo'q bo'lish darajasiga yetadi. Faqat

Buxoro shahri yaqinida Zarafshon kichik bir ariqqa – sug‘orish tizimida ishlatib bshlmas holga kelib qoladi.

XIX asrning oxiriga kelib, Buxoro amirligining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli turg‘un holatda bo‘lib, xo‘jalik tizimi mukammal rivojlanmagan edi. Eski feodal ishlab chiqarish usuli hamda jo‘n mehnat qurollari xalqning turmush darajasini yaxshilashga, iqtisodiy taraqqiyotning rivojlanishiga imkon bermasdi. Shuni alohida qayd etish kerakki, Buxoro amirligi aholisining tarkibi va soni ma‘lum darajada o‘sib borgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligi aholisining umumiy soni 2153240 kishiga yetgan⁴⁵.

Shuningdek, turkiy xalqlar butun amirik aholisining 85 foizga yaqini (1830254)ni, eroniylar 12 foizni (258389) va boshqa xalqlar esa 3 foizni (64597) kishini tashkitl etgan. Buxoro amirligi aholisining 300 mingga yaqini Surxon daryosining quyilish joyidan Chorjo‘ygacha bo‘lgan Amudaryoning har ikkala tomonida tor hudud bo‘ylab joylashib, jami aholining 14 foiziga to‘g‘ri kelgan.

Surxon-Sherobod vohasida joylashgan Sherobod bekligida yer ishlari va qishloq xo‘jaligi haqida ma‘lumotlar bekklik hududi 7 amlokdorlikdan: Gilambob, Tallashqon, Maydaariqsoy, Saidobod, Jarqo‘rg‘on, Pattakesarva Cho‘chqaguzardan iborat bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Sherobod bekligining umumiy aholisi soni 45 ming kishini tashkil etib, aholining asosiy qismi bo‘lgan 26 ming kishi Sherobod shahri va uning atrofidagi Gilambob, Tallashqon, Maydaariqsoy va Saidobod amlokdorliklarida istiqomat qilgan. Shuni alohida qayd etish kerakki, Saidobod, Tallashqon, Gilambob, Angor va Jarqo‘rg‘on amlokdorliklaridagi aholining 12 ming kishisini vaxtamg‘ali, ochamoyli, chig‘atoy, qonjig‘ali qo‘rg‘irotlari tashkil etadi⁴⁶. Pattakesar va Cho‘chqaguzar amlokdorliklarining aholisi 8000 kishidan iborat bo‘lib, Amudaryo qirg‘oqlarida asosan turkmanlar yashar edi.

Sherobod bekligidagi Sherobod shahri va Pattakesar aholisi asosan oilaviy savdo-sotiq, tadbirkorlik va hunarmandchilik bilan shug‘ullanishgan, qolgan aholi esa asosan qishloq xo‘jaligi va qisman chorvachilik bilan kun kechirishgan.

Sherobod bekligi aholisi orasida yirik savdo-sotiq bilan shug‘ullanadigan hamda paxtani va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalar quradigan ishbilarmonlar, paxta oldi-sotdisi bilan shug‘ullanuvchi savdogarlar ko‘paydi. Shuningdek, bir bozordan olib, ikkinchisiga sotuvchi savdogarlar Jarqo‘rg‘on-Kokaydi-Sherobod-Angor-Pattakesar-Cho‘chqaguzar-Sho‘rob yo‘nalishida harakatda bo‘lishgan. Sherobod bekligidagi mavjud 7 amlokdorlikdan 5 tasi qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanib, ushbu amlokdorliklarda istiqomat qiluvchi 7347 nafar dehqon oilasidan 500 tasi (jami aholining 6,9 foizi) tomorqa xo‘jaligiga ega bo‘lmay, ular asosan boshqa tog‘ qishloqlari hamda Boysun bekligidan kelgan aholi edi. Shuningdek, 900 nafar dehqon oilasi kam yerli bo‘lib, ular jami qishloq aholisining 12,2 foizini tashkil etgan. Qolgan 80 foiz qishloq aholisi to‘liq tomorqa xo‘jaligiga bo‘lib, ular yaxshi hayot kechirar edilar.

Sherobod bekligida mavjud yerlar uch qismdan: 1. Buxoro davlati yerlari. 2. xususiy-shaxsiy yerlar. 3. ruslar ixtiyoriga o‘tgan yerlardan iborat edi. Shu bilan birga Buxoro amirligi ixtiyorida shariatga taaluqli yerlar ham mavjud bo‘lib, ular xususiy-shaxsiy yerlar hisobidan shakllangan. Ekilmay, foydalanilmay qolgan ham Buxoro amiri nazoratida bo‘lib, biron-bir yerdan, u qanday holatda bo‘lishidan qat‘my nazar, davlat ruxsatisiz foydalanish mumkin emas edi. Buxoro amirligida sug‘orish tizimi nihoyatda qattiq nazorat ostida bo‘lib, qishloq, hovli, ariq va suv shohobchalari maxsus suv nazoratchilari – miroblar tomonidan nazorat qilinar edi.

⁴⁵ Бўриев С. XX аср бошларида Шеробод беклигида ер-сув муносабатлари // Тафаккур. – Тошкент., – №2. 2010. – Б.103.

⁴⁶ Бўриев С. XX аср бошларида Шеробод беклигида ер-сув муносабатлари // Тафаккур. – Тошкент., – №2. 2010. – Б.104.

Ayniqsa, paykallarni sug'orish ikki bosqichdan iborat bo'lib, tungi va kunduzgi sug'orish tizimiga bo'lingan⁴⁷.

Suvni ruxsatsiz olish yoki navbatsiz suvni tomorqaga ochish o'g'irlik hisoblanib, maxsus jazo sifatida suvdan mahrum qilish, jarima to'lash, hattoki zindon jazosi bilan jazolanar edi. Bundan tashqari, ariq va sug'orish tizimlarini tozalashga butun qishloq aholisi ommaviy jalb qilingan. Ushbu hasharga qatnashmaganlar suvdan mahrum qilingan. Suv taqsimoti miroblar, oqsoqollar tomonidan belgilanib, suv, qum, quyosh soati kabi harakat belgilari bo'yicha qat'iy nazorat ostida aniq o'lchov bilan bkrilar edi.

Suv taqsimoti davrida sug'oriladigan yerning hajmi 1,5 dan 2,5 desyatnagacha hisobga olinib, 1 desyatina nrga va 10 desyatina yerga qancha suv kerakligi, shuningdek, 1 omoch yoki yoki 10 omoch yerni sug'orish uchun zarur suv hisobga olingan. Umumiy hisob orqali mirob yerga qancha suv lozimligini aniqlash bilan birga, yerning tarkibi, baland-pastligi, tuproqning holati, sho'rlanish darajasi, qattiqligiga ham e'tibor qaratgan. Shu hisob-kitoblar yordamida har bir hovli, xo'jalik uchun suv solig'i hisoblab chiqilgan.

2.2. Qo'ng'irotlar sulolasi davrida Xiva xonligida sug'orish ishlariga e'tiborning kuchayishi va uning sabablari

Xorazm dehqonchiligida eng qiyin muammo tuproqni ishlash va uning hosildorligini saqlash muammosi bo'lgan. Xorazm sharoitida yerni sug'orish ham qiyin muammo edi. Xorazmda ko'p yer bo'lishiga qaramay, har bir dehqon Amudaryoga tutashgan yerning har bir qarichi uchun qattiq kurash olib borar edi⁴⁸. Daryo chetidan uzoqlashgan sari yer ishlanmas va ekilmasdan qola berar edi. Bunday yerlarga faqat suv jon kirgizishi mumkin edi. Xorazmda yerlar ikki usul bilan chig'irliq bilan va chig'irliqsiz sug'orilar edi. Chig'irliqsiz sug'oriladigan yerlarga suv daryolardan ariqlar orqali chiqarilar, ariq suvlari yerlarning nishabiga qarab oqar edi. Yerni chig'irliq (chig'ir) bilan sug'orilgan taqdirda buning uchun daryoga katta chig'irliq o'rnatilar, bu chig'irliqni suvning oqishi harakatga keltirmay, balki ot, ho'kiz yordami bilan harakatga keltiril, kichikroq chig'irlarni esa odamlarni o'zi aylantirib, harakatga keltirar edi.

Tabiiyki, sug'orish inshootlarini muttasil ta'mirlab turish va yangi inshootlar qurish, katta sug'orish tizimlarini qurishda ishni tashkil etish uchun juda ko'p mablag' va kuch sarflash zaruriyati tug'ilar edi. Shu sababli Xorazm vohasida davlat hokimiyati qanchalik barqaror bo'lsa, sug'orish tizimi shu qadar keng miqdorja olib borilar va foydalaniladigan yerlar ham shunchalik ko'payar edi⁴⁹.

1860 yillarda qurilgan Daryoliq kanalining Yormish va Qilichniyozboy ariqlari oraliq'idan Amudan chiqqan suvni butun o'zani bo'yab, Ko'hna Urganchdan yuqorida Lavzan ariqqa quyilgan joyigacha uchta to'g'on qurilgan. Birinchi yuqori to'g'on mayli jangal mavzesida joylashgan edi. Bu joyda suv to'g'on orqali dam qilinib, hozirgi xonning amakisi (Muhammad Rahimxon Feruzning amakisi) amirulumaroga qarashli yerlar aynan shu yerdan sug'oriladi. Shu sababdan ham to'g'onning nomi ham Amirulumaro to'g'oni deb ataladi⁵⁰.

Oллоhqulixon (1825-1842) taxtga o'tirgandan keyin, 1839-1840 yili Munisning shogirdi va uning tarbiyasini olgan Ogahiyini chaqirib, 1813 yil voqyealarini bayon etishi bilan uzilib qolgan "Firdavs ul-iqbol" asarini davom ettirishni buyuradi. Ogahiy 1813 yildan boshlab Xorazmda sodir bo'lgan voqyealarni yoza boshlaydi.

⁴⁷ Бўриев С. XX аср бошларида Шеробод беклигида ер-сув муносабатлари // Тафаккур. – Тошкент., – №2. 2010. – Б.104.

⁴⁸ Ёўлдошев М.И. Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. – Т.: Ўзбекистон ССР Давлат нашриёти, 1959. – Б. 80.

⁴⁹ Ёўлдошев М.И. Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. – Б. 81.

⁵⁰ Ёўлдошев М.И. Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. – Б. 154

“Firdavs ul-iqbol” uzoq davrni qamrab olgan bo‘lib, Markaziy Osiyo, ayniqsa, Xiva xonligi tarixini o‘rganishda qimmatli manbadir. Asarda Xorazmning qadimiy davri bilan bir qatorda, Xiva xonligining 1825 yilgacha bo‘lgan siyosiy tarixi bayon etilgan, toj-taxt, boyluk uchun olib borilgan kurashlar va shuningdek, Xiva xonlarining turkman va qoraqalpoq xalqlari bilan bo‘lgan munosabatlari haqida ham ko‘plab ma’lumotlar keltirilgan.

XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida davlat hokimiyatining markazlashuvi bilan Xiva xonligida irrigatsiya qurilishiga yanada e’tibor kuchayadi. “Firdavs ul-iqbol” asarida qayd qilinishicha xonlikda yangi yerlarni o‘zlashtirish munosabati bilan 1808-1815 yillarda Qilichniyozboy, 1838-1839 yillarda Toshsoqa kanallari qurilgan⁵¹.

Xonlikning asosiy boyligi yer hisoblanardi. Bu Yei»lar sug‘oriladigan (axya) va sug‘orilmaydigan (adra) yerlardan iborat edi. Egalik shakliga ko‘ra, Xiva xonligining yerlari ham uchga bo‘lingan. 1. Davlat yerlari (podshohi). 2. Xususiy mulk (xususiy yerlar). 3. Vaqf yerlari.

Xon va uning qarindoshlari, oliy martabali boshqa turli amaldorlar, ruhoniylar, savdosiyoq tabaqalari barcha yerlarning deyarli yarmiga egalik qilishgan. Amaldorlarning yerlari 2–3 ming tanobni tashkil etgan. Xon va uning qarindoshlari undan ham katta hajmdagi yer maydonlariga egalik qilishgan. Qolgan yerlar davlat ixtiyoriga olingan (vaqf yerlaridan tashqari). Davlat yerlarida va xususiy mulk yerlarida ijarachi dehqonlar mehnat qilganlar. Ijara yerlarining hajmi 10 tanobgacha bo‘lgan.

Xon va boshqa xususiy mulk yerlarida dehqonchilik qiluvchilar yarimchilar deb atalgan. Bunday deb atalishiga ular yetishtirgan hosilning yarmini ijara haqqi uchun berganliklari sabab bo‘lgan edi.

Xonning qarindoshlari o‘z xususiy yerlaridan davlatga soliq to‘lamas edilar. Davlat soliqlaridan ruhoniylar, katta amaldorlar, tarxon yer olganlar ham ozod etilgan edilar.

Mayda yer egalari tobora xonavayron bo‘lib borganlar. Oxir-oqibatda, ular yerlaridan judo bo‘lganlar.

Shaharlarning iqtisodiy taraqqiyotdan orqada qolishi, yirik sanoatning mutlaqo yo‘qligi oqibatida G‘arbiy Yevropa davlatlarida yersiz dehqonlar shaharga ish izlab borishdek imkoniyatga ega bo‘lmagan. Oqibatda, ular qishloqda qolishga majbur bo‘lganlar.

Suv tanqisligi tufayli dehqonchilik qiyin sharoitda olib borilardi. Shu boisdan Amudaryodan suv chiqarishga e’tibor berildi. XVIII asr 70-yillarida Davkor koli yonida kanal, XIX asr boshlarida esa Lavzan kanali, Qilich Niyozbiy kanali, Katta Xonobod kanali qurildi. Bu tadbirlar yerlarni sug‘orish holatini yaxshilashga ko‘maklashdi.

Xiva xonligida soliq va majburiyatlar haddan tashqari ko‘p bo‘lgan. Asosiy soliq salg‘ut, ya’ni yer solig‘i edi. Bundan tashqari, salgut (bir yo‘la to‘lanadigan soliq), miltiq puli (qurol sotib olish uchun aholidan yig‘iladigan jarima), arava oluv (aholining qo‘lidagi aravalarini davlat Ishlariga safarbar etish), uloq tutuv (aholining qo‘lidagi otlar va tuyalarni safarbar etish), qo‘nalg‘a (elchilar va amaldorlarga ko‘chib o‘tish uchun joy berish), so‘ysun (qo‘nalg‘a chog‘ida amaldorlarni mehmon qilish uchun mol so‘yish), chopar puli (soliq yig‘ish xabarini yetkazuvchilar uchun haq to‘lash), tarozuyona (tarozibonga to‘lov haqi), mirobona (mirob uchun yig‘im), darvozabon puli (yukni o‘tkazganlik uchun shahar darvozasi qorovuliga to‘lanadigan haq), mahalliy hukmdorga haq to‘lash, qorovulga haq to‘lash, pul solig‘ini qabul qilayotganda xazinachiga haq to‘lash, qo‘riqbonga (o‘rmon yoki yaylov nazoratchisiga) haq to‘lash, mushrifona (hosilni tekshiruvchi va uning miqdorini aniqlovchi amaldorga haq to‘lash), afanak puli (begar majburiyatini o‘tash haqida xabar berganlik uchun to‘lanadigan haq), chibik puli (ommiy ishlarida qatnashishdan ozod etilgani uchun to‘lanadigan haq), ruhoniylarga to‘lanadigan haq.

⁵¹ Мунис чамани. Методик-библиографик қўлланма. – Тошкент., 2008. – Б.14.

Ko'rinib turibdiki, mehnatkash xalq 18 ta soliq va boshqa to'lovlar to'lagan. Hunarmandlar, tashqi savdo bilan shug'ulla-nuvchi savdogarlar, chorvadorlar zakot to'lashgan.

Muhammad Rizo Ogahiy (1809-1874) buyuk shoir, muarrix, iste'dodli tarjimon va davlat arbobidir. U Xorazmda Xiva xonligining poytaxti Xivadan 7-8 chaqirim uzoqlikdagi Qiyot qishlog'ida tavallud topdi. Dastlabki ma'lumotni Qiyot qishlog'ida olgach, Xiva madrasalaridan birida o'qishni davom ettirdi. Muhammad Rizoning ma'naviy kamolotida amakisi – shoir, ulug' murabbiy Shermuhammad Munis (1778-1829) alohida o'rin tutadi. Munis xon saroyida katta va mas'uliyatli lavozim – mirob lavozimida edi. Uning vafotidan so'ng – 1829 yildan Ogahiy saroy ishlariga aralasha boshladi. Xiva xoni Olloqulixon uni mirob lavozimiga tayinlaydi. Saroydagi bu mansab ilm-fan, adabiyot va san'at shaydosi bo'lgan Ogahiyning anchagina vaqtini band qilar edi.

Ogahiy buyuk lirik shoir edi. U “Ta'iz ul oshiqin” (“Oshiqlar tumari”) nomli hajman katta bo'lgan devrn tartib qildi. “Bayozi mutafarriqai forsiy” majmuasini tuzgan.

Ogahiy zabardast muarrix sifatida o'z salaflari Abulg'ozzi Bahodurxon, Shermuhammad Munis Xorazmiy kabi mutafakkirlar an'analarini davom ettirdi. U ustozini Munis tugatishga ulgurmagan Muhammad Xovandshoh Mirxondning “Ravzat us-safo” asarining birinchi jildi tarjimasini, “Firdavs ul iqbol” tarixiy asarini Olloqulixon topshirig'iga binoan oxiriga yetkazdi. Bundan tashqari u o'zi “Riyoz ud-davla”, “Zubdat ut-tavorix”, “Shohidi iqbol”, “Jome'ul voqyeoti sultoniyy”, “Gulshani davlat” nomli yirik ilmiy-tarixiy asarlar yaratdi. Ularda 1813-1873 yillar mobaynida O'rta osiyoda ro'y bergan tarixiy voqyea-hodisalar xronologik izchillikda bayon etiladi. Tarixiy asarlarda Ogahiy tasvirlayotgan ko'p voqyealarning shohidi bo'lganligi yoxud ishonchli manbalarga asoslanganligi ko'zga yaqqol ko'zga tashlanadi. Muarrix asarlarida badiiy ijodning ko'plab namunalari, hikmatli so'zlar, xalq maqollari, iboralari kabi xalq og'zaki ijodiga mansub bo'yoqlardan mohirona foydalandi. Ogahiy musulmon Sharqi mutafakkirlari asarlaridan yigirmadan ortig'ini katta mahorat ila o'zbek tiliga tarjima qilindi. Mutafakkir o'zining “Ta'viz ul-oshiqin” devonining “Debocha”sida ularning ro'yxatini keltirib o'tadi. Bu asarlar Kaykovusning “Qobusnoma” asariga aloqasi bo'lmasa-da, ularning Ogahiy tomonidan tarjima qilingan qismlar “Qobusnoma” va Ogahiyning tarjimonlik faolyatining alohida jihatlari yortishda yordam beradi.

“Guliston” – Shayx Muslihiddin Sa'diyning 8 bobdan iborat bo'lgan didaktik asari bo'lib, unda umumbashariy orzular ta'limiy-tarbiyaviy hikoyatlarda bayon etilgan. Ogahiygacha bu asar 14 asr oxirida Sayfm Saroyi tomonidan o'zbek tiliga “Gulistoni bit turkiy” nomi bilan erkin tarjima qilingan. 1909 yilda Toshkentda Murodxo'ja domla Solihxo'ja o'g'li ham tarjima qilgan va madrasa talabalariga qulay bo'lsin uchun katta sharh bilan ta'minlagan. Asar “G'ulomiya” matbaasidan bosmadan chiqqan. Keyinchalik G'afur G'ulom, Shoislom Shomuhamedov, Rustam Komilovlar o'zbek tiliga tarjima qildilar. 1913 yilda atoqli pedagog, shoir Abdulla Avloniy Sa'diyning “Guliston” asariga nazira sifatida “Turkiy guliston yoxud axloq” asarini yaratdi⁵². Ogahiy Sa'diyning “Guliston” asarini 1982-1983 yillarda o'zbek tiliga tarjima qilgan.

“Axloqi Muhsiniy”– XV asrda yashab, ijld qilgan allomalardan biri, Alisher Navoiyning do'sti Kamoliddin Xusayin Voiz Koshifiy (1440-1504) tomonidan yozilgan ta'limiy-ma'rifiy asar. Bu asarda ta'lim-tarbiya, bola arbiyasida ota-ona, muallimning o'rni kabi masalalar keng yoritilgan. Xusayn Voiz o'z davrining yirik axloqshunos oliim, voizlardan bo'lib, “Anvari Suhayliy” (“Kalila va Dimna”ning fors tilidagi tarjimasini), “Futuvvatnomai sultoniyy” kabi inson kamoloti haqidagi asarlari mavjud Ogahiy “Axloqi Muhsiniy” asarini umrining oxirida 1873 yilda o'zbek tiliga o'g'irgan.

“Daloyil ul hayrot”– XV asrda yashab faoliyat ko'rsatgan aqidashunos Muhammad ibn Sulaymon Juzuliyning Muhammad payg'ambar va uning sahobalari, avliyolari hayot haqida hikoya qiluvcht rivoyatlar, madhiyalar to'plami bo'lib, asar daloyilxon - talabalar uchun asosiy

⁵² Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Тошкент.: Ёзувчи, 1993.

qo‘llanma bo‘lgan. Ogahiy ushbu asarni Fasix al Qasriy tomonidan usmonli turk tiliga qilingan sharhini 1870 yilda tarjima qilgan.

“Zubdat ul-hikoyat” (“Hikoyalar sarasi”) – Boburiyoda Avrangzeb hukmronligi davrida Hindistonda yashab ijod qilgan tarixchi olim Muhammad Vorisning tarixiy-badiiy, axloqiy asari hisoblanib, undagi axloqiy ta’limiy hikoyatlar podshoh Avrangzeb – Olamgir faoliyatiga bog‘liq holda tasvirlangan. Asarning Ogahiy tarjimasini O‘zR FA Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondida saqlanmoqda.

“Badoe ul –vaqoe” (“Go‘zal voqyealar”) –Zayniddin Mahmud ibn Abdualil Vosifiyning memuar asari. Unda Ibn Sino, Ulug‘bek Mirzo, Muhammad Havofiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro kabi olim va shoirlar, davlat arboblari haqida nihoyatda qizikarli hikoyatlar keltirilgan. Asrlar davomida bu go‘zal asar yEvropa va rus sharqshunoslari B.A.Dorn, V.V.Bartold, A.Yu.Yakubovskiy, ye.E. Bertelslar e’tiborini qozonib kelgan. 1961 yilda Moskvada professor A.N.Boldirev “Badoe ul-vaqyeo”ning ilmiy-tanqidiy matnini nashr ettirdi. Ogahiyshnos olim, professor Fathulla G‘anixo‘jaev ushbu asarning Ogahiy tarjimasini topishga muvaffaq bo‘ldi⁵³.

Ogahiyning xonlikda, ayniqsa, Muhammad Rahimxon Feruz oldida e’tibori nihoyatda yuqori edi. Faqat “Qobusnoma”ni emas, balki shayx Muslihiddin Sa’diyning “Guliston” asarini ham shahzoda Feruz topshirig‘iga binoan tarjima qildi⁵⁴.

Ogahiy va Feruz munosabatlari ko‘proq Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlarini eslatadi. 1863 yili Feruzning otasi Sayyid Muhammad vafot etadi. 19 yoshli Muhammad rahim Xiva xonligi taxtiga ko‘tariladi. Uning saltanat sohibi bo‘lishi toj-taxt uchun kurashlar, xunrezliklar bilan emas, balki saroy ahillarining “shuaro va fuzalo xayl”ning hohish irodasi bilan amalga oshdi. Bu holni Muhammad Yusuf Bayoniy “Shajarai Xorazmshohiy” asarida katta mamnuniyat bilan tasvirlaydi. Saltanat sohibini qutlash, bu voqyeaga bag‘ishlab tarix va qasida bitish Muhammad Rizo Ogahiy zimmasiga tushadi. Chunki o‘sha davrdagi saroydagi eng martabali inson Ogahiy edi. Uning 92 baytdan iborat Muhammad Rahimxon II – Feruzga bag‘ishlab yozgan 92 baytdan iborat “Ma’vizatnoma”si Bayniyning asarlarida qayd etilgan. Unda shoir yosh xonga davlatni adolat bilan boshqarish haqida pand-nasihatlarni qiladi, buning uchun u tarixda o‘tgan hukmdorlar faoliyatini taxt sohibi ko‘z o‘ngida jonlantiradi, ularning olib borgan ishlaridan to‘g‘ri xulosa chiqarishga dav’at etadi. Chunki u umri davomida yetti xon hukmronligini o‘z boshidan kechirdi. Ogahiy davlatni adolat bilan boshqarishda zarur bo‘lgan fazilatlar bilan birga, saltanatni parokandalikka olib boruvchi illatlar haqida ham ogohlantiradi.

“Qobusnoma”ning o‘zbek tiliga tarjima qilinishida o‘sha davrda 16 yoshli shahzoda bo‘lgan Muhammad Rahim Feruz (1844-1910)ning xizmatlarini ham alohida ta’kidlab o‘tish lozim. Muhammad Rizo Ogahiy o‘z shogirdi yosh yigitcha valiahd Muhammad Rahim haqida gapirib, har qanday o‘yin-kulguni yig‘ishtirib qo‘yib, “kitobxonliqqa, ma’nidonliqqa” mashg‘ul bo‘lganini, ushbu “Nasihanoma”sini shahzodaning topshirig‘i bilan tarjima qilganini ma’nuniyai bilan izhor qiladi. “.....ul shahzodai ozodaning nazari anvori mutolaasiga yetishdi va musaffo xotiriga uni turkiy til bila tarjima qildirmoq tamannosi tushdi. Bu bandai faqir Muhammad Rizo Ogahiy edi....”

Muhammad Rahimxon 47 yil Xorazm vohasida davlat boshqardi, Shuning o‘ziyiq uning katta salohiyatli sultonligini, adolatparvar, ma’rifatparvar xon ekanligini ko‘rsatadi. Feruz Xiva tarixining eng og‘ir va xalq, mamlakat uchun eng tahlikali davrida – Rossiya imperiyasining mudhish istilosi yuqori bosqichga ko‘tarilgan davrda xonlik qildi.

Ogahiyning “Qobusnoma”ni tarjima qilishi uning keyingi she’riyat ijodiga ham katta ta’sir ko‘rsatgan. Alalxusus, asardagi umubashariy g‘oyalar uning ba’zi she’rlariga ko‘chib o‘tgan. Shoirning “Ustina” radifli g‘azalida Kaykovusning adolatli humronligi tarannum etilgan.

⁵³ Фанихўжаев Ф. Атоқли шоир, тарихнавис, таржимон. – Тошкент., 1999. – Б.146.

⁵⁴ Саъдий Шерозий. Гулистон. Огаҳий таржимаси. / Нашрга тайёрловчи С.Долимов. – Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993.

2.3. Qo‘qon xonligida yer-suv munosabatlari va Farg‘ona vodiysi irrigatsiya tizimining shakllanishi

XVIII asr birinchi yarmida O‘rta Osiyo xonliklari chuqur siyosiy inqirozni boshdan kechirgan. Turli hukmdorlar orasida qarama-qarshiliklarning chuqurlashib borishi natijasida mavjud xonliklarda murakkab siyosiy vaziyat yuzaga kelgan. Siyosiy hayot inqirozi iqtisodiy hayotdagi parokandalikka olib kelgan. Natijada, bu davrda markaziy hokimiyatning salohiyati susayib, hukmron sulolalarning mavqeyi pasayib ketgan. Hokimiyat tepasida turgan sulolalar o‘rniga o‘zbek urug‘lari vakillari kelganlar. Jumladan, Buxoroda Ashtarxoniylar Mang‘itlarga, Xivada Shayboniylar Qo‘ng‘irotlarga siyosiy hayot maydonini bo‘shatib berdi. Qo‘qon xonligining tashkil topishi ham bu davrda kechgan murakkab siyosiy jarayonlarning hosilasi edi.

Buxoro xonligidagi siyosiy boshboshdoqlik natijasida XVIII asr boshlarida Farg‘ona vodiysida mustaqil Qo‘qon xonligi tashkil topgan. Qo‘qon xonligiga Chodak xo‘jalarining yordami bilan 1709 yilda Ming urug‘ining boshlig‘i Shohruhbiy ibn Ashur Muhammad (1709 – 1721) asos solgan⁵⁵.

Qo‘qon xonligi siyosiy tarixini (1709 – 1876) shartli ravishda to‘rt bosqichga bo‘lish mumkin: 1. Xonlikning shakllanish davri (1709 – XVIII asr 50-yillari). Bu davrda Qo‘qon xonligi asosan Farg‘ona vodiysidan iborat bo‘lib, xonlik hukmdorlari mamlakatni birlashtirish, ichki nizolarga barham berish, tashqi dushmanga qarshi kurashish, mamlakat mavqeyini mustahkamlash bilan mashg‘ul bo‘lgan. 2. Taraqqiyot davrining boshlanishi (XVIII asrning 60-yillaridan shu asr oxirigacha). Bu asosan Norbo‘tabiy (1763 – 1798) hukmronlik qilgan davr bo‘lib, xonlik hududi kengaygan, siyosiy va iqtisodiy jihatdan yuksala boshlagan. Mamlakat O‘rta Osiyoda ham o‘z mavqeyiga ega bo‘lib borgan. 3. Taraqqiyot davri (XIX asrning birinchi yarmi). Olimxon (1798 – 1810), Umarxon (1810 – 1822), Muhammadalixon (1822 – 1842) kabi hukmdorlar davrida xonlik hududi kengayib, shimoldan qozoq cho‘llari va u orqali Rossiya, g‘arbdan Buxoro amirligi, cho‘l zonalari orqali Xiva xonligi hududi, sharqdan Qashqar yerlari bilan chegaradosh bo‘lib, janubiy hududlari Pomir tog‘lariga tutashib ketgan. Xonlik O‘rta Osiyoda siyosiy mavqeyini mustahkamlash bilan birga, iqtisodiy jihatdan ham ancha yuksalgan. 4. Tanazzul davri (XIX asrning 50 – 70-yillari). Bu davrda ichki nizolar va tashqi urushlar avjiga chiqqan. Mamlakat siyosiy va iqtisodiy tanazzulga yuz tutgan. Taxt uchun kurashlar kuchayib, xonlik hukmdorlari tinimsiz almashinib turgan. Xatto, Xudoyorxonning o‘zi uch marta (1845 – 1858, 1862 – 1863, 1865 – 1875) taxtga kelib, ichki nizolar oqibatida uch marotaba undan ketishga majbur bo‘lgan. Tashqi dushmandan xonlik o‘zini mudofaa qila olmagan. Natijada, dastlab 1842 yil Buxoro Qo‘qon xonligini vaqtincha bosib olgan bo‘lsa, 1876 yil Rossiya imperiyasi unga barham bergan.

Qo‘qon xonligidagi mavjud shaharlarining vujudga kelishi va ularning taraqqiyoti ham bevosita bu shaharlar yaqinida xon xukumatining farmoni bilan soy va kanallarning qazilishi bilan bevosita bog‘liq edi. Chunki, vodiy sharoitida suv inshootlarining qurilishi tufayli aholi soni muayyan hududlarda ko‘paya borgan va bu shaharlar vujudga kelishiga xizmat qilgan.

Xonlik davrida yirik iqtisodiy markazlardan biriga aylangan shaharlardan biri Namangan hisoblanadi. XIX asr boshlariga kelib, Qo‘qon xonligida iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri sifatida Namangan shahrining mavqeyi ortib bordi. 1803 yilda Norin daryosidan suv oluvchi Yangiariq kanalining qazilishi va uni 1819 yili kelib Umarxon tomonidan kengaytirilishi qo‘riq yerlar o‘zlashtirilishiga va Namangan shahrining yanada kengayishiga sabab bo‘ldi⁵⁶.

⁵⁵Мирзо Олим Махдум Хожи. Тарихи Туркистон / Сўзбоши ва изоҳлар III. Воҳидовники, араб ёзувидан таъдил III. Воҳидов ва Р. Холиқова, кўрсаткичлар III. Воҳидов ва Д. Сангинова. –Т., Янги аср авлоди, 2008. – Б. 5.

⁵⁶Иванов П. П. Очерки по истории Средней Азии. – Москва., 1958. – С. 182.

Qo‘qon xonligi davrida asos solingan va asta-sekin yirik iqtisodiy markazlardan biriga aylangan shaharlardan yana biri Shahrixon hisoblangan. Qo‘qon xoni Umarxon (1810 – 1822) ning zamondoshi Dilshodi Barnoning “Tarixi Muhojiron” asaridagi ma'lumotga ko‘ra, Umarxon Shahrixonga 1821 – 1822 yillarda asos solgan⁵⁷. Umarxon yangi shaharga asos solganidan so‘ng, xonlikning turli hududlaridan hunarmandlarni ko‘chirib keltirgan va bu yerda savdoni rivojlantirish maqsadida savdogarlardan bir necha yil boj olmaslikni buyurgan⁵⁸. Shuningdek, Umarxon Shahrixonsoy kanalini qazdirganidan so‘ng ko‘p yerlar o‘zlashtirilgan va Shahrixon yanada kengaygan. Tarixchi Mirzo Olim Mushrif, “Shahrixon obod bo‘lib, g‘allasi Ho‘qand askariga kifoyat qilib, yana ziyodasi ombor qilinur edi”, – deb yozgan edi⁵⁹.

XIX asr boshlarida O‘sh atroflarida yashovchi aholi katta yerlarni o‘zlashtirganligi sababli Andijon atroflariga Oqbura daryosi suvi kelmay qolgan. Natijada, Andijon atroflaridagi botqoqliklar qurib, sholikorlik taraqqiy etgan va Andijon sholisi atrofda mashhur bo‘lgan⁶⁰.

Iqtisodda dehqonchilikning salmog‘i juda yuqori edi. Ayniqsa, qadim dehqonchilik an‘analariga ega bo‘lgan Farg‘ona vodiysida bu narsa yaqqol ko‘zga tashlanadi. Xonlik hududida suv manbalarining yetardli ekanligi dehqonchilikdan yuqori hosil olinishiga asos bo‘lardi. Ekiladigan ekinlar butun O‘rta Osiyo mintaqasiga xos bo‘lib, donli ekinlar yetishtirish (g‘allachilik, jo‘xori) polizchilik, bog‘dorchilik, sabzavotchilik, sholikorlik anchagina yaxshi rivojlangan edi. XIX asrga kelib xonlikda paxta maydonlari ham to‘xtovsiz kengayib bordi. Paxtaning asosiy xaridori Rossiya edi.

Mamlakatning asosiy boyligi bo‘lgan yerga egalik qilish qo‘shni musulmon davlatlaridagidek bo‘lib, hosildor yerlarning katta qismi davlatniki hisoblanardi. Davlatdagi eng katta mulkdor-xon bo‘lib, u katta-katta hosildor yerlarga, ulardan olinadigan hosilga, u yerlarda joylashgan yaylovlar, chorva mollari, hunarmandchilik ustaxonalari, savdo do‘konlari va boshqalarga egalik qildirdi. Harbiy-ma‘muriy amaldorlarga berilgan «tanho», «tarxon» shaklidagi yer mulklari faqat xizmat davrida berilgan va meros bo‘lib avloddan-avlodga o‘tmagan. Diniy mahkamalar va madrasalar xarajatlari uchun vaqf yerlardan keladigan daromadlar asosiy rol o‘ynagan. Bunday yer-mulklarga odatda butun-butun qishloqlar, ustaxonalar, do‘konlar, tegirmonlar va boshqa ishlab chiqarish korxonalari bo‘lgan katta yer-mulklari kirgan.

Xonlikdagi mavjud soliqlar tizimi shariat qonun-qoidalarida belgilangan tartiblarga mos kelsada, aholidan ko‘plab mayda soliqlar, jarimalar undirib olish keng tarqalgan edi. Asosiy soliq Xiroj bo‘lib, u pul va mahsulot tarzida undirib olinardi. Savdogarlar va chorvadorlar Zakot solig‘i to‘lashar, hunarmandlardan ham turli soliqlar (tamg‘a joy solig‘i) olinardi. Soliq yig‘uvchi amaldor tanobchi (har tanob yerdan soliq oluvchi), zakot solig‘ini yig‘uvchi amaldorlar zakotchi deb atalar edi. Soliqlar qat‘iy belgilangan miqdorda va vaqtida yig‘ilishi shart bo‘lsa-da, xon va amaldorlarning ixtiyori bilan bu narsa o‘zgarib turgan. Harbiy harakatlar paytida, ayniqsa soliqlar turi va miqdori oshirilgan.

Soliqlardan tashqari aholi majburiy ravishda turli ishlarga: kanallar qazish, ariqlarni tozalash, obodonchilik ishlariga, turli qurilishlarga jalb qilinardi.

Xonlikda O‘rta osiyo mintaqasiga xos bo‘lgan barcha yirik hunarmandchilik turlari: to‘qimachilik, kulolchilik, temirchilik, misgarlik, duradgorlik va boshqalar mavjud edi. Iqtisodning bu sohasi, ayniqsa yirik shaharlarda: Qo‘qon, Toshkent, Andijon, Marg‘ilon, o‘sh, Xo‘jand, Turkistonda yaxshi rivojlangan bo‘lib, xonlikdagi ayrim yirik qishloqlarda hunarmandchilikning bir qancha turlarini ishlab chiqarish ham yaxshi yo‘lga qo‘yilgandi.

Xususan, Qo‘qon o‘z temirchilari, misgarlari, Chust do‘ppido‘zlari, Rishton kulolchilik mahsulotlari, shahrixon pichoqlari, marg‘ilon ipak va shoyi buyumlari bilan shuhrat topgan

⁵⁷Дилшоди Барно. Тарихи Мухожирон // Қўлэзма ЎзРФА ШИ. №1207. 19-варақ.

⁵⁸Жалилов С. Фарғона водийсининг шарқий районларининг суғорилиш тарихидан. Тарих фан. ном... дисс.– Т., 1965. – Б. 65.

⁵⁹Мирза Олим Мушриф. Ансоб-ус салотин ва таворих ул хавокин // Қулэзма ЎзРФА ШИ. №1314. 21-варақ.

⁶⁰Исоқхон Ибрат. Тарихи Фарғона // Қулэзма ЎзРФА ШИ. – №11080. 44 -варақ

bo'lib, xonlikdagi yuqori sifatli hunarmandchilik buyumlariga ichki va tashqi bozorda talab katta bo'lgan. Shu bois hunarmandchilikni qadim an'analarga ega soha sifatida XVIII-XIX asrda ham o'z ahamiyatini saqlab kelganligi bilan izohlash mumkin.

XULOSA

Tarix taqozosi bilan XIX asrga kelib O'rta Osiyo hududida joylashgan davlatlar asosan dehqonchilik bilan shug'ullanadigan o'troq davlatlar va asosan chorvachilik bilan shug'ullanadigan ko'chmanchi davlatlar jahondagi harbiy jihatdan kuchlilardan hisoblangan yirik davlatlar (Angliya, Rossiya, Xitoy)ning geopolitik, harbiy va iqtisodiy manfaatlarini to'qnashgan fokusga ro'baro' bo'ladilar. Ayni shu vaqtga kelib bu yerdagi davlatlar feodal tarqoqlik, o'zaro urushlar, mamlakat ichkarisida taxt talashishlar va boshqa qator sabablarga ko'ra harbiy va iqtisodiy jihatdan sillalari qurib bo'shshgag, umumiy xavf paydo bo'lganda bir yoqadan bosh chiqarish va harakat qilishni uyushtiradigan kuchlar esa yo'q darajada edi. «Birlashgan o'zar, birlashmagan – to'zar!» degan xalk. maqoli bu yerda yuzaga kelgan holatni juda anik, ifodalaydi... Shu bois bu o'lkani va bepoyon o'lkaning kimning yoki kimlarningdir asoratita tushish xavfi mantiqan muqarrar bo'lib qolgandi. Rossiya davlati Petr I zamonlaridayoq, bu o'lkani zabt qilishga o'tlangandi. Jo'g'rofiy jihatdan juda yaqin – qo'shni bo'lgan va «otini boshqalardan oldinroq qamchilagini» (XVIII–XIX asrlarda amalga oshirilgan qator harbiy tayyorgarliklar, diplomatiya va savdo sohasidagi tadbirlar) uchun bo'lsa kerak Rossiya davlati o'z niyatiga XIX asrning 60–70- yillarida uzil-kesil erishdi va Turkiston Rossiya imperiyasining eng yirik mustamlakalaridan biriga aylandi.

Turkiston o'lkasida mavjud bo'lgan irrigatsiya sohasi o'zining yutuq-kamchiliklari, kuchli va kuchsiz tomonlari bilan tarixan qisqa vaqt ichida (XIX asr o'rtalarida 1917 yilgacha) ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar, o'zgarishlarga boy dramatik amaliyot yo'lini bosib o'tdi. Bu yo'lni mohiyat va ko'lami bilan Hindistonni ingliz mustamlakachilari zabt etib, u yerda mavjud bo'lgan irrigatsiya sohasida yuz bergan o'zgarishlar Hindiston irrigatsiyasi mustamlaka sharoitida bosib o'tgan yo'l bilan taqqoslash mumkin. Ko'p hollarda o'zlaridan oldin Hindistonni zabt etgan boburiylarning tajribasini o'rganib ish yuritdilar. Rossiyalik fotixlar esa boshqacha ish tutdilar, ular o'z yurtlarida qo'llashga botinmagan yer va melioratsiya sohasidagi qonunlarni (irrigatsiya ishlarini shaxsiy sarmoya xisobiga bajarish, bunday ishlarga konsessiyalar berish, buning evaziga o'zlashtirilgan yer va suvning bir qismini shaxsiy mulk sifatida sarmoyadorga berish va xokazolar) Turkiston o'lkasi sharoitida qo'llashga urindilar, Rossiya imperatori esa Turkiston o'lkasida eng birinchi o'ta yirik yer-suv egasiga aylanib qoldi... Xolisona aytadigan bo'lsak, 1917 yil voqyealari Turkiston o'lkasi xalqlarining azaliy xuquqlari – yer-suvga egalik kilish xuquqlarining poymol bo'lishidan saqlab qoldi.

Irrigatsiya (suvdan foydalanish, ta'mirlash va boshqalar) ishlarini tashkil qilishda va boshqarishda o'z-o'zini boshqarish va xo'jalik hisobi prinsiplarini qo'llash, suvdan foydalanishni takomillashtirish uchun «Suv yoki irrigatsiya okruglari»ni tashkil qilish va ularni boshqarish maqsadida ma'lum vaqtga demokratiya yo'li bilan saylanib qo'yiladigan «Vakillar kengashi»ning xizmatidan foydalanishga o'tish va shunga o'xshash boshqa qator yangiliklar yaqin o'tmishimizdan bizga meros bo'lib qolgan tajribalar emasmi? Bu tajribalar (tashkiliy va texnologik usullar) o'z vaqtida qay darajada qo'llanilgan, kanala samara bergan.

XIX asr oxiriga kelib sug'oriladigan dehqonchiligi rivojlangan mamlakatlarda irrigatsiya sohasida, birinchi galda suvdan foydalanish va uni boshqarishning eng quyi pog'onasida (fermerlar, dehqon xo'jaliklari darajasida) turli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ko'pchilik islohotlarning asosiy mohiyati suv resurslaridan foydalanish va boshqarish ishiga suvdan foydalanuvchilarning o'zlarini, ularning shaxsiy imkoniyatlari va mablag'larini imkon darajasida jalb qilishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Rasmiy adabiyotlar

- I.1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Тарих институти фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида” ги Қарори // Халқ сўзи. 1998 йил 28 июль.
- I.2. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари // Хавфсизлик ва тараққиёт йўлида. 6-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 1998.
- I.3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent., Ma'naviyat, 2008.
- I.4. Karimov I. A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O'zbekiston, 2011.

II. Adabiyotlar

- II.1. Абдурасулов У. К вопросу о классификации земельного фонда Хивинского ханства (вторая половина XVIII – XIX в.) // O'zbekiston tarixi. –Тошкент., 2006. –№ 2-3. – Б. 83-89;
- II.2. Абдурасулов У. Вакфная грамота 1778 года как источник по изучению аграрных отношений в Хивинском ханстве // O'zbekiston tarixi. –Тошкент., 2006. –№ 2-3. – Б. 49-57.
- II.3. Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Тошкент.: Ёзувчи, 1993.
- II.4. Агзамова Г. А. О караванных путях из Хивы в Оренбург // Общественные науки в Узбекистане. – Ташкент, 1991. – №12. – С. 43–48.
- II.5. Агзамова Г. А. К истории торговли Бухари XVI–первой половины XIX века // Общественные науки в Узбекистане. –Ташкент, 1991. – №9-10-11. – С.56–63.
- II.6. Агзамова Г. А. Сўнгги ўрта асрлар Ўрта Осиё шаҳарларида хунармандчилик ва савдо. – Т., 2000. – 52 б.
- II.7. Аскарлов А. Ўзбекистон тарихи. 1-жилд, – Т.: Фан, 1992.
- II.8. Бобобеков Ҳ.Н. Кўкон тарихи. – Т.: Шарқ, 1996. – 320 б.
- II.9. Бўриев С. XX аср бошларида Шеробод беклигида ер-сув муносабатлари // Тафаккур. – Тошкент., – №2. 2010. – Б.103.
- II.10. Веселовский Н. И. Очерк историко-географических сведений о Хивинском ханстве от древнейших времен до настоящего. – СПб., 1877. – 364 с.
- II.11. Веселовский Н. И.. Памятники дипломатических и торговых сношений Московской Руси с Персией. – СПб., 1890. Т.1. – 453 с.
- II.12. Веселовский Н. И. Иван Данилович Хохлов – русский посланник в Персии и Бухаре в XVII в // Журнал Министерство народного просвещения. 1891 г. январ. – С. 48–72.
- II.13. Голубков П. О торговом пути в Среднюю Азию и Индию через Россию. – М., 1847. – 15 с.
- II.14. Гулишамбаров С. О. Всемирная торговля в XIX веке и участие в ней России. –СПб., 1898. – 230 с.
- II.15. Губаревич-Радобильский А. Экономический очерк Бухары и Туниса. Опыт сравнительного исследования двух систем протектората. – СПб., 1905. – 130 с.
- II.16. Гулямов Я.Г. К изучению древних водных сооружений в Узбекистане. Изв. АН УзССР, 1955, №2. – С. 42.
- II.17. Жабборов И. Ўзбек халқ этнографияси. – Тошкент, 1994.
- II.18. Жувонмардиев А. XVI-XIX асрларда Фарғонада ер-сув масаласига доир. – Т.: Фан, 1965. – 301 б.
- II.19. Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Т.: Шарқ, 2000. – 298 б.
- II.20. Зиёев Ҳ. З. Тарихнинг очилмаган саҳифалари. – Т.: Шарқ, 2005.–232 б.

- П.21. Зияева Д. Ҳ. Важные сведения по истории Бухары в мемуарах зарубежных путешественников XIX века. // Тарихий манбашунослик муаммолари. Республика илмий амалий анжумани материаллари. – Т., 2008. – Б. 175–178.
- П.22. Иванов П. П. Очерки по истории Средней Азии. – Москва., 1958. – С. 182.
- П.23. Исмаилова Б. Политическая история Бухарского эмирата при Эмире Хайдаре. – Душанбе.: Қонуният. 1999. – 76 с.
- П.24. Исҳоқов З. Фарғона водийси анъанавий дехқончилик маданияти. – Тошкент., Yangi nashr, 2011. – 144 б.
- П.25. Йўлдошев М.И. Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. – Тошкент., 1959. – 350 б.
- П.26. Курц Б. Г. Сочинение Кильбургера о русской торговле в царствование Алексея Михайловича. – Киев. 1915. – 606 с.
- П.27. Лебедев Д. М. География в России XVII века. –М–Л., 1949. –233 с.
- П.28. Лунин Б.В. История Узбекистана в источниках. Узбекистан в сообщениях путешественников и учёных 20-80-е годы XIX в. – Ташкент.: Фан, 1990. – 192 с.
- П.29. Мавлонов Ў., Маҳкамова Д. Маданий алоқалар ва савдо йўллари. –Т.: Академия, 2004. – 122 б.
- П.30. Мавлонов Ў.М. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари: шаклланиши ва ривожланиш босқичлари. – Т.: Akademiya, 2008. – 432 б.
- П.31. Михалева Г. А. Торговые и посольские связи России со среднеазиатскими ханствами через Оренбург (вторая половина XVIII–первая половина XIX в.) – Т., Фан, 1982. – 92 с.
- П.32. Михалева Г. А. Узбекистан в XVIII– первой половине XIX века. Ремесло, торговля, пошлин. – Т.: Фан, 1991. – 112 с.
- П.33. М о р г у н е н к о в Ф. Использование свободных водно-земельных ресурсов в Туркестане, Хиве и Бухаре // «Вестник ирригации», 1923. №3, 4. – С. 3
- П.34. Мукминова Р. Г. Очерки по истории ремесла в Самарканде и Бухаре в XVI веке. – Т.: Фан, 1976. – 233 с.
- П.35. Мунис чамани. Методик-библиографик қўлланма. – Тошкент., 2008.
- П.36. Муҳаммаджонов А.Р. Ўзбекистоннинг қадимги гидротехника иншоотлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997.
- П.37. Ремез. И. А. Внешняя торговля Бухары до мировой войны. – Т., 1922. – 45 с.
- П.38. Шермухаммад Мунис. Ғазаллар. – Т.: 2000. – 56 б.
- П.39. Usmonov Q., Jo`rayev U., Norqulov N. O`zbekiston tariixi (XVI-XIX asrning birinchi yarmi). – Toshkent., O`qituvchil, 2010.
- П.40. Қобулов Э. Сурхон воҳаси хўжалиги. –Тошкент.: Akademnashr, 2012. – 408 б.
- П.41. Қодиров А. Ўзбекистон ирригацияси тарихидан лавҳалар. – Тошкент, 1998.
- П.42. Қосимов Й. Наманган тарихидан лавҳалар. – Т.: 1990. – 54 б.
- П.43. Қосимов Й. Қадимги Фарғона сирлари. – Намангон, 1992. – 88 б.
- П.44. Ғанихўжаев Ф. Атоқли шоир, тарихнавис, таржимон. – Тошкент., 1999.
- П.45. Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихидан. – Т.: Фан. 1959. – 249 б.

III. Manbalar

- Ш.1. Арриан Флавий. Поход Александра. Пер. М. Е. Сергеенко. – М–Л., 1962. – 384 с.
- Ш.2. Геродот. История в девяти книгах. Пер. и примеч. Г. А. Стратановского. – Л.: Наука, 1972. – 600 с.
- Ш.3. Квинт Курций Руф. История Александра Македонского. Пер. и примеч. под. ред. В. С. Соколова. – М.: МГУ, 1963. – 478 с.
- Ш.4. Страбон. География в семнадцать книг. Пер. статья и ком. Г. А. Стратановского. – Л.: Наука, 1964. – 943 с.

- Ш.5. Средняя Азия в известиях античного историка Ктесия. Пер. и примеч. И. В. Пьянкова. – Душанбе.: Дониш., 1975.
- Ш.6. La route de Samarcande: L'Asie Centrale dans l'objectifs des voyageurs d'autre-fois / Par Svetlana Gorshenina. – Geneve. Educations Olizane, 2000. – 247 p.
- Ш.7. Десятилетнее странствование Филиппа Ефремова (70-е годы XVIII века) // История Узбекистана в источниках. Известия путешественников, учёных и географов XVI-первая половина XIX в. –Ташкент., 1988.
- Ш.8. Зайн ад-дин Васифи. Бадаи ал-вакаи / Критический текст, введение и указатели А.Н.Болдырева. В 2 томах. – М., 1961.– 1377 с.
- Ш.9. Ҳофиз Таниш ибн Мир Мухаммад Бухорий. Абдуллонома (Шарафномаи шоҳий) / Форсчадан С.Мирзаев таржимаси. Сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Б.Аҳмедов. 1-2 китоб. – Т., 1999. – 416 б.
- Ш.10. Мирзо Олим Маҳдум Хожи. Тарихи Туркистон / Сўзбоши ва изоҳлар Ш. Воҳидовники, араб ёзувидан табдил Ш. Воҳидов ва Р. Холиқова, кўрсаткичлар Ш. Воҳидов ва Д. Сангирова. –Т., Янги аср авлоди, 2008. – Б. 5.
- Ш.10. Мухаммад Юсуф Мунши. Муқим-ханская история / Перев. с таджик. Пред. примеч. и указатель проф. А.А.Семёнова. –Т., 1956. – 303 с.
- Ш.11. Мухаммад Амин-и Бухари. Убайдулла-наме / Перев. с таджик. Пред. примеч. и указатель проф. А.А.Семёнова. –Т., 1957. – 326 с.
- Ш.12. Абдуррахман Тали. История Абулфейз-хана / Перев. с таджик. Пред. примеч. и указатель проф. А.А.Семёнова. –Т., 1959;
- Ш.13. Ҳақимхон ибн Саййид Маъсумхон. Мунтахаб ут-таворих. ЎЗР ФАШИ. қ.ф. №594. – 699 в.
- Ш.14. Мухаммад Азиз Марғилоний. Тарихи Азизий. – Т.: Маънавият, 1999. – 112 б.
- Ш.15. Сойманов Ф.И. Описание Каспийского моря. – Спб., 1763. – 380 с.
- Ш.16. Сойманов Ф.И. О торгах за Каспийское море древних, средних и новейших времен. – Спб., 1765. – 74 с.
- Ш.17. Описание всех на российском государстве обитающих народов. Част 2. О народах татарского племени. – СПб., 1776. – 188 с.
- Ш.18. Савельев П. Бухара в 1835 году. –СПб., 1836. – 26 с.
- Ш.19. Путешествие Г.Базинера через киргизскую степь в Хиву 1842 г. с Данилевским // Известия РГО. Вып 5. – СПб., 1849 – 282 с.
- Ш.20. Хаников Н. Описание Бухарского ханства. – СПб., 1843.
Попов А. Сношение России с Хивой и Бухарою при Петре Великом // Записки ИРГО. Кн.9. – Спб., 1853 – 188 с.
- Ш.21. Путешествия по Средней Азии совершенной в 1863 году Арминием Вамбери. – СПб., 1865. – 221 с.

IV. Dissertasiya va avtoreferatlar

- IV.1. Агзамова Г.А. Среднеазиатские центры торговли и пути, связывавшие их с Россией (вторая половина XVI – первая половина XIX в.): Дисс. ... канд. ист. наук. –Т.: ИИ АН Уз ССР, 1990. – 195 с.
- IV.2. Гаффоров Ф. Россия билан Кўкон ўртасидаги иқтисодий ва сиёсий алоқалар (XIX асрнинг биринчи ярми ва 60-70 йиллар): Тарих фан.номз. ... дисс. –Т.: Ўз ССР ФА ТАИ, 1970. – 226 б.
- IV.3. Гуломов Х.Г. Посольские связи Бухарского ханства с Россией в XVIII веке: Дисс. ... канд. ист. наук. –Т.: ИИ АН Уз ССР, 1984. – 177 с.
- IV.4. Жалилов С. Фарғона водийсининг шарқий районларининг суғорилиш тарихидан. Тарих фан. ном... дисс.– Т., 1965. – Б. 65.

IV.5. Саидбобоев З. А. Европада Ўрта Осиёга оид тарихий-картографик маълумотлар (XVI–XIX асрлар): Тарих фан. номз. ... дисс. – Т.: ЎзР ФА ШИ, 2004. – 166 в.

V. Internet saytlari

V.1. www.wikipedia.ru.